

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Dinshunoslik va jahon dinlarini
qiyosiy o’rganish YUNESKO” kafedrasini
mudiri “_____”

t.f.n., dot. D. Rahimjonov

“_____” _____ 2014 yil

Karimova Maftuna Furqat qizi

Mavzu: YAHUDIYLIK, XRISTIANLIK VA ISLOM DINLARIDA
G’AYBIYOT MASALALARI

Ta’lim yo’nalishi: 5220400-Dinshunoslik

Bakalavr darajasini olish uchun taqdim etilgan
bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: kat.o’qit. Isoqjonov R.

Taqrizchi: o’qit. J. Najmiddinov

Toshkent-2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB YAHUDIYLIK VA XRISTIANLIK MANBALARIDA NARIGI DUNYONING AKS ETISHI.....	9
1-§. Tavrotda borliq haqidagi ta'limot va esxatologik qarashlar.....	9
2-§. Xristianlik aqidasida metafizika va osmon podshologi.....	15
II BOB ISLOM MANBALARIDA G'AYBIYOT MASALASI.....	26
1-§. Qur'oni karimda kavniyot va g'aybiyot masalasi.....	26
2-§. Musulmon ilohoyotchilarining g'aybiyot masalasiga bergan ta'riflari.....	38
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	55
ILOVALAR.....	58

KIRISH

Hozirgi davrda butun jahonda va mamlakatimiz hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarini to'g'ri tushunib olish, ularga to'g'ri munosabatni shakllantirish, ularni hozirgi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib to'g'ri baholash, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz sari yetaklaydi. Xuddi mana shularni ijobiy hal qilishimiz esa Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyatimizni yangilash borasida oldimizga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi. Zero, ular ta'kidlaganidek, "Jamiyatni ma'naviy yangilashdan bosh maqsad– yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat"¹. Bu ulkan vazifalarni ma'naviyatimizni milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.

Komil insonni tarbiyalash milliy mafkuraning asosiy g'oyasi va davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani ijtimoiy hayotga tatbiq etish davlat tashkilotlari, muassasalari va jamoat birlashmalarining doimiy diqqat markazida turadi. Zero, yosh avlod nafaqat bizning kelajagimiz, balki hozirgi dolzarb muammolarni hal etishda ilg'or g'oyalar bilan ishtirok etuvchidir.

Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekistonda dinning ijtimoiy ahamiyati qayta tiklandi. Prezidentimiz Islom Karimov "Turkiston press" axborot agentligi muxbirining savollariga bergan javoblarida, jumladan shunday deyiladi: "Nega biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ulug' ajdodlarimizning tabarruk nomlarini tiklashga kirishdik? Chunki bu buyuk insonlarning aziz nomlari, o'lmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Biz dinimizni bu ulug' nomlarsiz, bu ulug' nomlarni esa dinimizsiz tasavvur qila olmaymiz"². Diniy konfessiyalarning rasmiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Millatlar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik va o'zaro ishonchga

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasini xalq e'tiqodi va buyuk kelajak ishonchidir. T.: O'zbekiston, 2000. 23-24 B.

² Karimov I A. O'zbekiston, 1999. 218 B.

asoslangan munosabatlarni shakllantirishda dinlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa dinning yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash va dunyoqarashini shakllantirishdagi faol ishtiroki bilan bog'liq.

Mavzuning dolzarbligi. Din inson hayotining ajralmas qismi, uning yashash tarzi, axloqi, dunyoqarashiga ta'sir o'tkaza oladigan kuchdir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir"³. Din o'z mavqei va inson hayotidagi o'rniga ko'ra ijtimoiy hayotning muhim qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham u inson va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi va ahamiyatiga ko'ra turli vazifalarni bajaradi. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda turli din vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Jahon dinlarining kelib chiqish tarixi, ta'limoti, ular o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlarni o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunga bir tomondan qiziqishning ortib borishi, ikkinchi tomondan esa globallashuv jarayonida yuzaga kelgan talab va ehtiyojlar sabab bo'lmoqda. Chunki dunyo miqyosida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan dinlar va ularning vakillari o'rtasidagi do'stona munosabatni yo'lga qo'yish, dinlararo va millatlararo bag'rikenglik tamoyilini shakllantirish xalqaro tinchlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan birini tashkil etadi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

Birinchidan, ma'lumki borliq, xususan insonning yaralishidan tortib, uning hayoti va eng asosiysi o'limidan keyingi jarayonlar doimo kishilarning diqqat markazida bo'lgan masalalardan biridir.

Ikkinchidan, borliq masalasining falsafiy qarashlar aks etishidagi muhim xususiyati uning ilk qarashlardagi inson omili bilan bog'liqligidir⁴.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 36 B.

⁴ Исаков А.И. Бог и бытие христианство и философия. Исследование. 2012. С. 1.

Uchinchi dan, insoniyatning chuqur tarixiy davri mobaynida dunyoda turli e'tiqod va dinlar mavjud bo'lgan. Eng qizig'i shundaki ularning har biridagi muhim jihat insonning o'limidan keyingi holati va unga ma'lum bo'lmagan olam hayoti to'g'risidagi qarashlardir.

To'rtinchi dan, din hozirgi sharoitda muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Dinning jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotida tutgan o'rnini bilish uchun uning jamiyat va shaxs hayotida qanday o'rin egallashini, dinning davlatga va shaxsning dinga munosabatini tarixan qanday o'zgarib borganligini ilmiy tahlil qilish lozim bo'ladi. Buning uchun esa insonning diniy dunyoqarashiga ta'sir etadigan asosiy omillar e'tiborga olinishi zarur.

Tadqiqotning ob'yekti. Yakkaxudolik dinlari sirasiga kiruvchi yahudiylilik, xristianlik va islom dinlaridagi g'ayb bilan bogliq masalalar.

Tadqiqotning predmeti. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda tayaniluvchi dinlardagi muqaddas manbalar, olimlarning bu boradagi tadqiqotlari.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Yurtimizda yoshlar tarbiyasi, ularni komil inson qilib tarbiyalash, turli xil zaharlovchi unsurlardan himoya qilish hamda yuqori madaniyat va salohiyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridandir. Mavzuning maqsadi turli din va madaniyatlarda o'limdan keyingi jarayon turlicha tasvirlari haqida yoshlar ongida tushunchalar hosil qilish, shu bilan birga ularni turli mafkuraviy tayziq hamda diniy oqimlar faoliyatidan saqlashdan iboratdir.

Mavzuning vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- Yakkaxudolik dinlaridan sanalgan yahudiylilik, xristianlik va islom dinlari aqidalarida o'rin olgan g'ayb bilan bog'liq qarashlarni tavsiflash;
- Dinlardagi g'ayb tushunchalarini o'xshash va farqli tomonlarini aks ettirish, qiyosiy tahlil qilish;
- Islom dinida keltirilgan kavniyot masalasi va uning muqaddas manbalar, Qur'oni karim va hadislarida aks etilgan ma'lumotlarni keltirish;
- Islom ta'limotida g'aybiyot masalalarining aks etishi, undagi holatlar va tushunchalarni tadqiq qilish;

- Musulmon ilohiyotchilarining yuqoridagi mavzu yuzasidan bergan ta'riflari, dalillari va xulosalarini o'rganish va tahlil etish;

Mavzuning ahamiyati.

1. Kishilarni milliy va diniy qadriyatlarni ilmiy va asosli ravishda, azaldan yurtimizda joriy bo'lib kelgan urf-odatlariga ko'ra o'rganishlarini ta'minlash va nazorat qilish.

2. Yurtdoshlarimiz qalbidagi g'oyaviy bo'shliqni to'ldirish, ularni diniy mutaassiblik, diniy ekstremizm, fundamentalizm kabi illat va nuqsonlarni bartaraf etish va ularni global mafkuraviy va g'oyaviy tahdidlardan ogohlantirish.

3. Jamiyat a'zosi sifatida barchaga ko'r-ko'rona ishonib ketavermaslik, ehtiyotkorona harakat qilish.

Mavzuning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqot ishida yurtimizda azaldan mavjud bo'lgan dinlar, xususan yahudiylilik, xristianlik, islom dinlaridagi g'ayb bilan bog'liq tushunchalar va ularning aks etishi o'rganildi, tahlil etildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. G'arb dinshunoslaridan Maks Myuller o'zining «От слова к вере» va V. Vundt «Миф и религия» asarlarida shu mavzuda fikr yuritishgan. Rudolf Bultman esa o'zining “History and Eschatology” asarida aynan dinlar va ulardagi g'ayb, o'limdan keyingi holat masalasi tarixiga to'xtaladi.⁵

Rus olimlaridan I. V. Jeltikova va D.V. Gusevlar “Ожидание будущего: утопия, эсхатология, танатология” nomli tadqiqot ishlarida falsafa, din, madaniyatda aks etgan kelajak bilan bog'liq qarashlarni keltiradilar va jamiyat dunyoqarashi va hayot tarziga singib katgan asosiy g'oyalarni aks ettiradilar.⁶

Pikov G.G esa xristianlik dinidagi o'lim bilan bog'liq qarashlar, ruh haqidagi xristian aqidalarini “Эсхатология и христианская историософия” asarida keltirib o'tadi.

Monoteistik dinlarda esxatologiya masalasini Farajulloh Adulboriy o'zining “Yavmul qiyoma baynal islam val masihiyya val yahudiyya” (Islom, xristianlik va

⁵ Bultmann R. History and Eschatology. The presence of Eternity. N.Y., 1957.

⁶ Желтикова И.В., Гусев Д.В. Ожидание будущего: утопия, эсхатология, танатология / Монография. – Орел: Издательство ОГУ, 2011.

yahudiylik dinida qiyomat kuni) asarida tadqiq qilgan.⁷ Bundan tashqari Muhammad Said yahudiylik, nasroniylik va islom dinlari, shuningdek qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Eron dinlarida oxirat haqidagi ta'limotlarni o'rgangan.

Bundan tashqari M.Yu.Zelenkov "Мировые религии", V.M.Zobern "Будущая загробная жизнь: Православное учение"⁸, A.V.Fomin. "О жизни вечной на том свете в райских обителях"⁹ kabi olimlar ushbu mavzuni tadqiq qilishgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ma'naviy sohada islohotlar amalga oshirilib, ko'plab diniy qadriyatlar qayta tiklandi. Bu esa o'z navbatida yurtimizda diniy sohada ham o'zgarishlar sodir bo'lishiga zamin yaratdi.

O'zbekistonda ushbu mavzuda ham amaliy faoliyat olib borilgan bo'lib, I.Turdimatova¹⁰, A. Zayriyevni¹¹ shu qatorda sanab o'tish mumkin.

Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekistonda dinning ijtimoiy ahamiyati, diniy qadriyatlar qayta tiklandi. Diniy konfessiyalarning rasmiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Millatlar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda dinlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa dinning yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash va dunyoqarashini shakllantirishdagi faol ishtiroki bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish vazifasining muvaffaqiyatli hal etilishi ko'p jihatdan dinga va dindorlarga nisbatan olib borilayotgan siyosatga ham bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligining mustahkamlanishi, ijtimoiy munosabatlar sekulyarizm prinsipi asosida rivojlanishining qayd etilishi, fuqarolarning diniy huquq va erkinliklarining kafolatlanishi fikrimizning yaqqol isbotidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998 yilda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi» qonun Konstitutsiyada belgilangan huquq ijodkorligi sohasidagi umumiy vazifalarni aniqlashtirdi, diniy tashkilotlar va dindorlar faoliyati bilan bog'liq masalalarning ijodiy hal etilishi namunasi

⁷ F. Abdulboriy. Yavmul qiyamatu fil islam, masihiya va yahudiyya. Dor al-ifoq al-arabiya.

⁸ Зоберн. В. М. Будущая загробная жизнь: Православное учение. Эксмо; Москва; 2012

⁹ Фомин. А. В. О жизни вечной на том свете в райских обителях. Москва. Новая мысль 2009.

¹⁰ Turdimatova. I. Dinshunoslik dolzarb masalalari. T. II. 2010

Ilmiy tahliliy axborot\ Toshkent islom universiteti. 2013.

¹¹ Zayriyev. A, Saidova S. Asriy tahdiddan ma'naviy himoya. T.: Movarounnahr, 2013.

vazifasini o'tadi. Ammo bu sohada muammolar to'liq hal qilindi, degan fikr masalaga yuzaki munosabatda bo'lishni va oqibati jamiyat uchun xavfli bo'lgan hodisalarni vujudga keltirishi mumkin.

Respublikamizda diniy tashkilotlar va fuqarolarning diniy e'tiqodi bilan bog'liq muammolar faqatgina din sohasidagi mavjud muammolar bilan cheklanmaydi, balki masalaga kompleks yondashuvni talab qiladi.

Dinning hozirgi zamon ijtimoiy hayotda, xalqaro munosabatlarda, madaniy hayotdagi mavqeidan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, din bundan keyin ham kishilarni o'zaro hamjihatlikka, tinchlikka, ezgulikka undovchi omil bo'lib qolaveradi.

Tadqiqotning tarkibi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ilovadan iborat. I bob "Yahudiylik va xristianlik manbalarida narigi dunyoning aks etishi" deb nomlanib, u ikki qismdan iborat. Ular quyidagilar:

1. Tavrotda borliq haqidagi ta'limot va esxatologik qarashlar;
2. Xristianlik aqidasiida metafizika va osmon podshologi;

II bob "Islom manbalarida g'aybiyot masalasi" deb nomlanadi, unda ikki qism o'rin olgan. Ular;

1. Qur'oni karimda kavniyot va g'aybiyot masalasi;
2. Musulmon ilohoyotchilarining g'aybiyot masalasiga bergan ta'riflari.

I BOB YAHUDIYLIK VA XRISTIANLIK MANBALARIDA NARIGI DUNYONING AKS ETISHI

1.1 Tavrotda borliq haqidagi ta'limot va esxatologik qarashlar

Dunyoda shunday tushunchalar borki, ularga aql yoki bilim bilan yetib bo'lmaydi. Ularga faqatgina ishonish, imon keltirish vositasida e'tiqod qilinadi. Turli din va madaniyatlarda o'limdan keyingi jarayon turlicha tasvirlanadi. Ba'zi e'tiqodlarda o'limdan keyingi hayot xuddi yerdagi hayot singari tasvirlanadi. Yahudiylikda borliq, insonga ma'lum bo'lmagan g'ayb olami esa bu hayotdan tamoman farq qilishi ta'kidlangan. Yahudiylik taxminan mil. avv. 2 – ming yillikda Falastinda paydo bo'lgan. Bu dinning asoschisi Muso (Moshe) bo'lib, u 400 yil davomida Misrda qullikda saqlanib kelgan Ibrohim avlodlarini ozod qilib, Misr yerlaridan olib chiqib ketadi. Shu vaqtda, Xudo Musoga Sinay tog'ida vahiy yuboradi va yahudiylik dini yuzaga keladi¹². Yahudiylikning eng muhim xususiyatlaridan biri Bani Isroil bilan Tangri orasidagi “Ahd”ga muqaddas kitoblarda keng o'rin berilganligidir. Shuning uchun bu din, “Ahd” dini sifatida ham e'tirof etilgan.

Shunisi qiziqki, yahudiylik yagona tangriga, muqaddas kitobga va payg'ambarlarga imon keltirilishi bilan milliy dinlardan, milliyashtirilishi bilan esa, ilohiy dinlardan ajralib turadi. Shu kabi sabablar bois, bu dinning o'xshashi yo'qligini hisobga oladigan bo'lsak, muayyan bir ta'rif berishni imkoni qanchalik qiyin ekani ayon bo'ladi. Chunki yahudiylikda din bilan millat o'zaro uyg'unlashib ketgan bo'lib, ularni bir-biridan alohida tushunish mumkin emas. Buni “Sonlar” kitobining 23 - bob 9 – oyatida keltirilgan “Balam” hikoyasidagi “...bu yolg'iz yashaydigan xalqdir va (oddiy) boshqa millatlardan biri deb hisoblanmaydi”, – degan fikrlar ham tasdiqlab turibdi. Yahudiylik ta'limotida, inson vafot etishi bilan bog'liq masalalarni bir necha bosqichlarga bo'lib o'rganiladi. Yahudiy dinining muqaddas manbalarida shunday deyiladi: “o'lim bashariyatning barchasiga salom beradi va inson turpoqqa qaytadi”. Yahudiy mutafakkirlari ushbu

¹² Вихнович.В. Иудаизм.- Спб. "Питер", 2006. С 7.

matnni qo'yidagicha sharhlaydilar: "Xudo insonlarni bir lahzaga tark qilsa, inson turpoqqa qaytadi. Demak, insonning hayotligi Xudoning insonda mavjudligi orqali bo'ladi". Ya'ni, Xudoning insonlarda mavjudligi, uning hayot bo'lishi uchun ko'rsatilgan inoyat ekani ta'kidlanmoqda. Agar Xudo bashariyatga inoyat qilmas ekan, ularning barchasi halok bo'luvchidir. Zaburda esa shunday deyiladi: "Sen insonni tuproqqa qaytarasan, "Ey odam o'g'illari, qaytinglar!", - deysan"¹³.

Yuqoridagi matnlardan, barcha insonlar bir kun kelib vafot etadi, hech bir jon o'limdan omonda qolmaydi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Masalan: "Kelajak hayotingizda na oziq-ovqat, na ichimlik, na nasl qoldirish, na savdo-sotiq, na xasad, na o'zaro dushmanlik, na o'rtalaringizda musobaqa bordir, faqatgina solih kishilar boshlarida toj ila o'tirib, ilohiy nurlanishdan rohatlanadilar.(Talmud. Braxot 17 a)

Bu qarash yahudiylarda inson o'limidan keyin jannatga sazovor bo'lishi holati bilan tavsiflanadi. Tavrotda jannat Adan nomi bilan atalib, uning sifatleri bayon qilingan¹⁴.

Inson taqdiri, o'lim va hayot, yaxshilik va yomonlik, narigi dunyoda gunohkorlarning jazolanishiyu, yaxshi amallar qilganlarning mukofotlanishi, umrni qadrlash, tog'ri va halol hayot kechirish, qiyinchiliklarni yengib o'tish, yomonlik qilishdan saqlanib, abadiy rohatga erishish kabi masalalar har bir yahudiyning hayotida muhim o'rin egallaydi. Jahon dinlari qatori yahudiylikda ham esxatologik g'oyalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi¹⁵.

Yahudiy ta'limotiga ko'ra, dunyodagi har bir narsa va hodisaning sodir bo'lish vaqti bor. Samo ostidagi har bir ishning o'z vaqti va zamoni bor: tug'lish, o'lim, sochga oq tushishi, dardga shifo topishning belgilangan vaqti bor¹⁶.

Yahudiylikda o'lim inson tomonidan sodir etilgan ilk gunoh sabali yuzaga kelgan, degan ta'limot mavjud bo'lib, bunga dalil sifatida Qadimgi Ahdda o'lim bilan Odam Atoni gunohlarini bog'langanini keltirish mumkin. Xudo ilk insonlar Odam va Havvoni yaratib, ularga jannatdan joy berdi. Xudo ularga barcha noz-

¹³Zabur, 89:4. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996. 838 B.

¹⁴Ibtido, 3:3.Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996. 618 B.

¹⁵Turdimatova. I. Ilmiy tahliliy axborot\ Toshkent islom universiteti. 2013. 2-son. 40 B.

¹⁶Sa'diyo al Fayyumi. al-Amanat val-e'tiqadat. 1882. 522 B.

ne'matlardan bahramand bo'lishga, rohat-farog'atda yashashga izn berdi. Xudo jannat o'rtasidagi faqat bir daraxt-"yaxshilik va yomonlikni bilish daraxti" mevasini yeyishni ta'qiqladi va o'sha daraxt mevasini yesa, o'lishi haqida Odam va Havvoni ogohlantirdi¹⁷.

Huddi mana shu talqinga nisbatan ayrim yahudiy olimlari o'z munosabatlarini bildirib otishgan va quyidagi xulosani berishgan. Ushbu o'limdan murod bu ruhiy o'lim bo'lib, unga ko'ra Odam Xudodan ajralib, jannatdan yerga tushishini anglatadi¹⁸.

Har bir insonda Xudoning timsoli bor, degan ta'limotga ko'ra yahudiylilikda inson biror gunoh sanalgan ishni sodir etsa, Xudo uni tark etadi. Bu haqida Izqiyol (Y'xezkel)¹⁹ kitobida ham, "gunoh ish qilgan jon vafot etadi", deb qayd etib o'tilgan.

Yahudiylilik ta'limotiga ko'ra, jannatda va jannatdagilarga o'lim yo'qdir. Aynan Odam va Havvoning ta'qiqlangan mevani yeb, gunohga qo'l urganlari sababli Xudo ularni tark etgan va ular jannatdan yerga tushirilganlar. Yerda esa har bir mavjudot, tirik jonning o'lim bilan yuzlashishi haqiqatdir. Aynan ilk sodir etilgan gunoh sababli Odam va Havvo avlodlariga o'lim paydo bo'ldi²⁰.

Ilk gunoh tushunchasini xristian aqidasi ham kuzatish mumkin. Unga ko'ra insoniyat tomonidan sodir etilgan gunoh, ya'ni ta'qiqni buzish barcha insoniyat ahlini gunohkor holatda tug'ilishiga sabab bo'lgan. Bu gunohni yuvish esa Iso Masih orqali amalgam oshishi xristianlik manbalarida keltirib o'tiladi. Islom dinida esa bunday tushuncha mavjud emas. Islom aqidasi ko'ra har bir inson fitratda dunyoga keladi.

Arab tadqiqotchisi Sa'diyo al-Fayumiyning aytishicha, har bir insonning o'lim vaqti kelganda Xudo tomonidan yuborilgan farishta jism va ruhni bir-biridan

¹⁷ Фрезер Джеймс Джорж. Фольклор в Ветхом Завете. М. Политиздат. 1986. С 29.

¹⁸ Turdimatova.I.Ilmiy tahliliy axborot\\ Toshkent islom universiteti. 2013. 2-son. 40 B.

¹⁹ Y'xezkel' taxminan miloddan avvalgi 622-571 yillarda yashagan Bibliyada nomi kelgan payg'ambar. Bibliyada uning o'z kitobi bo'lib, uning nomi bilan atalgan.

²⁰ Turdimatova. I.Ilmiy tahliliy axborot\\ Toshkent islom universiteti. 2013. 2-son. 40 B.

ajratadi va insonga ko'zlari sariq olovga to'lgan, qo'lida qilichi bor holatda ko'rsatiladi. Inson shuni ko'rsa, tinchi yo'qoladi va jismi ruhidan ajraladi²¹.

Yahudiylik ta'limotiga ko'ra, o'layotgan odamga, hatto unga qulaylik yaratish uchun ham tegib bo'lmaydi, uni misli so'nayotgan shag'amga o'xshatiladi, birgina harakat bilan uni o'chirib qo'yish mumkin. Ahvoli og'irlashib, o'limi yaqinlashgani sezilib qolgan odamning tepasida Tavrotning "Viduy" va "Tegilim" boblari o'qiladi. Barcha marosimlar o'layotgan insonning ruhi narigi dunyoga oson o'tishi uchun qilinadi²².

Yahudiylik ta'limotida mayyit vafot etgach, uni yuvish va kafanlash kabi masalalar ham o'rin olgan bo'lib, bu borada shunday deyiladi: "qadimda ham hozirda ham yahudiylarda mayyitning ko'zi ochiq qolsa, qarindoshlar tomonidan yumib, uni haqqiga duolar qilib, jasadni yuviladi va mato bilan kafanlab, boshini ro'mol bilan o'rab, jasadga xushbo'y atirlardan suriladi va qabrga qo'yiladi."²³

Yahudiylar odatiga binoan, inson joni uzilishi bilanoq uydagi barcha derazalar ochiladi va tayyorlab qo'yilgan barcha idishdagi suvlar sepiladi. Marhumning yuziga choyshab yopiladi. Yahudiylik motam marosimlar sirasiga esa olia a'zolarining aza tutish holatini keltirish mumkin. Olia a'zolaridan yeti kishiga aza tutiladi: ota, ona, aka (uka), opa (singil), og'il, qiz, xotini (ayol uchun eri). Tavrotda ushbu odatga ko'ra 30 kun aza tutish haqidagi ma'lumotni ko'rish mumkin.

O'rta asrning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri bo'lgan ravvin Maymond yahudiylikning 13 ta asosiy aqidasi tuzib chiqqan. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) olamni yaratuvchi xudo bor;
- 2) u bitta;
- 3) u jisimsiz;
- 4) u ibtidosiz;
- 5) faqat xudoning bir o'ziga sig'inish kerak;
- 6) tabiiy sir – haqiqat;

²¹ Sa'diyo al Fayyumiyy. al-Amanat val-e'tiqadat. 1882. 303 B.

²² Turdimatova.I. Ilmiy tahliliy axborot\ Toshkent islom universiteti. 2013. 2-son. 40 B.

²³ Luqo, 23:56.Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996. 209 B.

- 7) Muso payg'ambarlarning eng ulug'i;
- 8) tora (tavrot), ya'ni injilning birinchi besh kitobi Musoga xudo tomonidan berilgan;
- 9) Musoning qonunlarini boshqa qonunlar bilan almashtirib bo'lmaydi;
- 10) koinot xudoning irodasi bilan boshqariladi;
- 11) yaxshilarga yaxshilik, yomonlarga jazo bor;
- 12) Isroilga xaloskor keladi;
- 13) o'lganning tirilishi haqiqat.

Yahudiylarning asosiy 13 prinsipini XII asrda ishlab chiqqan Muso bin Maymon 13-asos qilib, o'lganlarning qayta tirilishi haqidagi aqidani keltiradi.²⁴

Jahon dinlari kabi yahudiylilikda ham inson vafot etgach, o'z amallariga ko'ra mukofot va jazo olishi haqida ta'limot mavjud. Solih bandalar qabri "Olam haba"(ivrit. kelajak olam) deb nomlanib, jannatga tenglashtiriladi. Yahudiylilikda jannat "Gan Eden" (lug'. "saodat bog'i") deb nomlanib, unga yahudiylardan bo'lgan solih kishilargina tog'ridan-tog'ri kiradilar. Aynan shu yerda yahudiylilikning millat dini ekanligi ta'sirini ko'rish mumkin. Jannat yerdagi hayotga o'xshamaydi. U yerda solih bandalar toj kiyib, xudoning nuridan bahramand bo'ladilar.

Yahudiylilikdagi gunohkor insonlar holati do'zaxga tushish va unda azoblanish haqidagi qarashlar ila ta'kidlangan. Masalan, vafot etgan gunohkor kishilar Hoviya ibroniycha Sheol deb nomlanmish shahar yoki manzilga yo'l oladilar, u yer devorlar bilan o'ralgan bo'lib, "sukunat manzili", "o'liklar diyori" deb yuritiladi. Bu joyda qorong'ulik hukmron, har eri qurt-qumursqa va Yaxveni unutganlar bilan to'la bo'ladi. Geyennada (lovullab yonayotgan olov bo'lgan ulkan vodiyl) gunohkorlar olovda azoblanadilar, deb tasvirlanadi. Boshqa dinlardagi do'zax tushunchasidan farqli o'laroq, Sheolda haftaning shanba kunlarida azob-uqubat yo'qdir. Bu yahudiylilikdagi shanba kuni muqaddasligi bilan izohlanadi. Yahudiylilikda do'zaxga tushga yahudiylar 12 oy davomida azoblanib, gunohlaridan forig' bo'lgach, jannatga kiradilar, qolganlar esa abadiy do'zaxda qoladilar.

²⁴ Пилкингтон. С. М. Религии мира. Иудаизмю 2001. с 10.

Talmudda ham ruh borasida ba'zi matnlar keltirilgan: "Ruh tanaga qaytib kirish uchun uch kun davomida mayyit atrofida aylanib yuradi, lekin tananing o'zgarganini ko'rib uzoqlashadi va uni tark etadi"²⁵. Yana shuningdek: "Har juma kuni kechqurun qabrda ruh jasadga kiradi va shanba kuni nihoyasiga yetguncha unda qoladi", degan ma'lumotlar ham mavjud.

Yahudiylkdagi "Saduqiylik" oqimi qabr azobini inkor etadi. Biroq, yahudiylkd qabr azobining mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni islom dini manbalarida ham uchratish mumkin. Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi: "Bir kuni Hazrati Oyshaning oldilariga bir yahudiy ayol kelib, qabr azobi haqida gapirib, "Xudo qabr azobidan seni asrasin", deb ketadi. Shunda, hazrati Oysha Rasulullohning oldilariga kirib, qabr azobi haqida so'raganlarida, u kishi "qabr azobi haqdir", deb javob berdilar.

Qadimgi Ahdda "Yaxve kuni" deb nomlangan qarash mavjud. Unga ko'ra aynan shu kuni Yaxve o'zining yerdagi barcha dushmanlari ustidan to'liq g'alabaga erishadi, yahudiylarda shu kun keyinchalik aynan qiyomat kuni deb sanala boshlangan. Yahudiylkd qiyomat kuni "Aharit Hayamim" (Kun oxiri) deb nomlanib, bu kunda dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'lishi, dunyoning strukturasi tamoman boshqacha tus olishi ko'zda tutiladi. Ma'lumki, Talmudda bu dunyo olti ming yil davom etishi yozilgan. Yahudiylar kalendari (luach) Xudovand dunyoni yaratgandan boshlanadi. Statistik ma'lumotlar esa 2009 yil yahudiylk kalendari bo'yicha 5769 yilga teng ekanini tasdiqlaydi. Shunday ekan, oxirat kuni yahudiy kalendari asosida 2240 yilga to'g'ri keladi.

Yahudiylk ta'limotiga ko'ra, Qiyomatga yaqin quyidagi hodisalar yuz beradi:

- Yer yuzidagi jamiki yahudiylar bir joyga jamlanadi;
- Messiyaning kelishi²⁶;
- Yahudiylarning barcha dushmanlaridan o'ch olinadi;
- Quddusda uchinchi marotaba ibodatxona qaytadan quriladi;

²⁵ Islomxon. Z. Talmud: Tarixuhu va ta'limuhu. Bayrut. 78 B.

²⁶ Messiya haqidagi e'tiqod yahudiylar uchun juda muhimdir. Ular kutgan xaloskor ertami-kechmi kelib yahudiylarni qutqarib, dunyoda tinchlikni ta'minlaydi va oxir-oqibat "Xudo podsholigi qurish orqali yahudiylarni dunyoga hokim bo'lish orzularini ro'yobga chiqaradi.

- Yahudiylarning yerlari cho'lu biyobondan bog'ga aylanadi;
- Gog va Magog o'rtasidagi jang. Bu urushda ikkala tomondan ham ko'plab yo'qotishlar bo'ladi. Shundan so'ng, Xudo ularning ishlariga aralashadi va yahudiy qavmini qutqarib qoladi. Yahudiy mutafakkirlaridan Sa'diyo al Fayyumiyning "al-Amanat val-e'tiqadat" kitobida: "Xudo yahudiy qavmini boshqa xalqlardan ulug' qilib yaratgani, oxirat bo'lishidan oldin ularni qayta tiriltirishi haqida so'z boradi. Jumladan, mutafakkir shunday deydi: "Biz oxirat eshigi oldida birinchilardan bo'lib tiriluvchilar emasmizmi?! Kim bu ummatning mukarram qilinganini inkor qila oladi?! Oxirat eshigi oldida barchamiz qayta tirilishimizning sababi, bu hayotlik dunyomiz bilan oxirat hayoti bir biriga ulanib ketishi uchundir. Xo'sh, kim bundan bizni mahrum qila olar ekan?! Bu adolatdan emasmi?! Axir, har bir inson qilgan amaliga yarasha jazo yoki mukofot oladiku?! Bizning ummatimiz ham katta sinovlardan sabr bilan o'tganda, beriladigan bunday mukofot, boshqalardan afzal bo'lishlik to'g'ri emasmi?!"²⁷. Ushbu matndan qiyomat vaqtida sodir bo'ladigan voqeaning yoritilganini ko'rish mumkin.

Yahudiylilik aqidasi ko'ra, qiyomat kuni barcha insonlar tanalari bilan birga qayta tiriladilar (ibr. "txiyat xa-metim" – qayta tirilish) va Yer yuzida yana istiqomat qiladilar. Torada qayta tirilish haqida ma'lumot uchramaydi. Biroq, payg'ambarlar kitobi va Talmudda bu kabi ta'limotlarni uchratish mumkin.

Talmudning Mishna kitobi 10-bobida shunday keltiriladi: "Butun yahudiy qavmi keyingi hayotda o'z nasibasiga egadir. Kimda kim qayta tirilishga ishonmas ekan, uning oxirati yo'q (ya'ni rohatga erishmaydi)"²⁸.

Yahudiylilikda farishta va shayton tushunchalari bilan bog'liq ravishda yana ko'plab ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Yahudiylilikda umumiy xulosaga ko'ra, shaytonlar osiy bo'lganliklari uchun Tangri huzuridan quvg'in qilingan, biroq o'z kuchlarini yoqotmagan farishtalardir. Yahudiy mistiklari ularga qarshi tumorlar, tilsimlar, duolarni tartibga solib, xalqni ham ularning ta'sir kuchiga ishontirgan

²⁷ Sa'diyo al Fayyumiyn. al-Amanat val-e'tiqadat. 1882. 226 B.

²⁸ F. Abdulboriy. Yavmul qiyamatu fil islam, masihiya va yahudiyya. Dor al-ifoq al-arabiya. S 170.

edilar. Yahudiy mistiklari tomonidan shaytonga “Sammael” nomi berilganini ko’rish mumkin.²⁹

O’xshashliklar bilan bir qatorda ba’zi farqli jihatlar ham bo’lib, unga ko’ra qabrda azoblanish yoki mukofot olish, faqat ruhning o’zigagina beriladi. Islomda esa, qabr azobi yoki mukofot ham ruhga, ham jasadga bir xil holatda bo’ladi. Shuningdek, islomda ikki farishta kelib, savol-javob qilishi haqidagi ta’limot mavjud. Yahudiylikda esa bu kabi holat kuzatilmaydi.

1.2 Xristianlik aqidasi metafizika va osmon podshologi

Xristian e’tiqodiga ko’ra inson avval boshida abadiy yashash uchun yaratilgan. Injilda keltirilishicha, Odamning barcha avlodlari o’limga muqarrardir: “...gunohdan esa o’lim paydo bo’ldi va butun insonlarga o’tdi”³⁰. Xristianlik ta’limoti “Xudo insonni boqiy jannatda yashash uchun yaratdi,”- deb hisoblaydi, lekin “Inson ta’qiqlangan meবাদan tanovul qilgani sababli u jannatdan quvildi va o’lim bilan jazolandi,”- deyiladi. Xristianlik tarixi bo’yicha olim Avgustin Gipponiskiyning ta’kidlashicha qadimgi Ahdda ilk gunohni avloddan-avlodga o’tishi, ya’ni tug’ilgan chaqaloq gunohkor bo’lib tug’ilishi haqida ma’lumot berilmagan. Bu keyinchalik Pavel tomonidan xristianlik ta’limotiga kirgazilgan. Gunohni yuvish haqidagi ta’limotga ko’ra, barcha insonlar gunohkor va odamzotni nasldan naslga o’tuvchi bu gunohdan qutqarish uchun xochga qoqilgan, qurbon bo’lgan yagona taqvodor zot Iso Masih edi. Yahudiylar Isoning xochga qoqilganligini tasdiqlaydilar va xristianlar bu hodisani amalga oshgan fakt deb qabul qilishadi. Ular Qadimgi Ahdning quyidagi hukmini inkor etadilar:

“Yog’ochga osilgan har qanday narsa Xudo oldida la’natlangandir”.(Ikkinchi Qonun, 21:33)

Insoniyat o’limdan qutilishining birgina yo’li bu – Isoga ishonish deb e’tiqod qiladilar. Iso Masihga ishongan xristian ham o’ladi, lekin bu muvaqqat o’lim bo’lib, bu unga abadiy hayot uchun eshik vazifasini o’taydi. Xristianlik ta’limotida

²⁹ Zayriyev A, Saidova S. Asriy tahdiddan ma’naviy himoya. T.: Movarounnahr, 2013. 16 B.

³⁰ Rimliklarga maktub, 5:12. Injil. Turkiya. “Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati”, 1996. 402 B.

inson o'limidan keyingi holat haqida bir qancha qarash mavjud. Masalan, "Osmon podshohligi" (grekchada "basileya ton uranon") tushunchasi xristian aqidalarida qo'llanilgan va ko'plab bahslarga sabab bo'luvchi tushunchadir. Bu aqida bu dunyodan o'tgan insonlarning ruhlari taskin topadigan va abadiy hayot kechiradigan joyni tavsiflab beradi. Uning Matfey Injilida 31 marotaba kelishini quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin³¹. "Osmon podshohligida" o'limidan keyin najot topgan insonlarning darajalari bo'lishi va ular o'z umri davomida qilgan amallariga qarab, "Osmon podshohligi" da o'z o'rnini egallashi uqtirilgan (Matfey 5:19). Injilda ruhning o'limdan so'nggi makoni haqida bir necha mujmal satrlar keltirilgan. Jumladan, Pyotrning 1-risolasida gunohkorlarning ruhlari "...zindon ruhlari..." deb atalib, ular cheksiz azob-uqubat chekishlari, o'lim esa ularni abadiy azob-uqubatga olib borishi bayon qilingan. Ayni paytda, Injilda yaxshi insonlarning ruhlari Xudoning qo'lida ekani va ular Masih bilan jannatda birga bo'lishi ham bayon qilingan.

Ko'plab xristian olimlari "Osmon podshohligi" va "Xudo podshohligi" tushunchalari va uning tavsifi haqida bahs yuritganlar. Masalan, F. Grant, V. Pannenberg, A. Shveytser, D. Teylor shular jumlasidandir.³²

"Osmon podshohligi"ni zaminida xristianlik e'tiqodida Iso Masihning qaytishi va hukmronligi borasidagi aqida o'rin olganini ham ta'kidlash lozim.³³

Xristianlik aqidasida Iso avvalambor messia ekanligi unutilgan degan qarashlar zamonaviy tadqiqotlardan ko'plab o'rin egallamoqda.³⁴ Uilyam Stroson o'zining "Jesus and life in future ages" tadqiqotida "osmon" tushunchasini Mark, Matfey va Luka injillarida qay tarzda aks etganini o'rganib, quyidagi xulosalarga keldi:

1. Yuqoridagi manbalarda faqatgina bir necha holatlarda "osmon" so'zi asl, tabiiy ma'nosida qo'llangan.
2. Yevangiliyada inson vafotidan keyin uning ruhi osmonga yo'l olishi haqida qarashlar mavjud emas. Bu esa ba'zi diniy jamoalar faoliyati va aqidasi muqaddas manbalarga mutlaqo zid ekanligining dalilidir.

³¹ Болотников А., Тора и царство небесное: Исследование, 2011. С. 2

³² Баззард. С. Э. Царство небесное на земле. С 3.

³³ Richard Hiers, Jesus and the Future, Atlanta: John Knox Press, 1981, p. ix.

³⁴ Lev Gillet. "The Politics of God," pp. 50,51.

3. Yevangiliyada Iso Masih o'z havoriylarini yerdagi hayotdan so'ng osmonda hayot kechirishlari haqida umuman aytmagani ko'rish mumkin.

“Osmon podsholigi” yerda Iso qaytgach, o'rnatilishi haqida avliyo Pavel ta'limotida aks etgan.³⁵ “Osmon podsholigi” va “Xudo podsholigi” tushunchalari Bibliyadagi eng murakkab tushunchalardir. Bu ikki tushuncha aslida bir ekanligini dalili o'laroq, Qadimgi Ahddda quyidagi ma'lumot keladi; “Kun kelur Xudovand shunday bir podshohlik barpo etadi. U podshohlik hech bir qavmga berilmas, u barcha podshohlklarni yo'q qiladi, o'zi esa abadiy qoladi”(Dan. 2:44). Bundan ko'rinib turibdiki, Xudovand bir podsholik barpo qiladi. Aynan Xudovandning o'zi yaratgani uchun bu joy “Xudo podsholigi” deb ham ataladi. Yangi Ahdda ham bir necha bora ikkala tushuncha ham bir ma'noda qo'llanilgan.³⁶

“Osmon podsholigi” tushunchasi asosan Matfey injilida ko'proq uchraydi, ammo Yevagiliyada keltirilgan ma'lumotlarga zid emas. Masalan, Matfey Injilining 3-bob 2-stixda “osmon podsholigi” deb keltirilsa, 6-bob 33-stixda esa “Avvalo Xudo podsholigi va Uning haqiqatini izlanglar...”,deb aytiladi.³⁷ Shuningdek, Luka injili 12-bob 31-stixda ham xuddi shu holatda keladi.³⁸ 19-bob 26-stixda “Boyning Xudo podsholigiga kirishidan ko'ra, tuyaning igna teshigidan o'tishi osonroqdir”.³⁹ Shuningdek, Luka injili 18-bob 25-stixda ham mazmun birdir.⁴⁰

“Osmon podsholigi”ga hech bir insonning haqqi yo'qdir. Chunki, har bir inson tug'ilganidanoq gunohkor bo'lib dunyoga keladi. Bu haqida Yevangiliyada ko'plab ma'lumotlar uchraydi.⁴¹ Lekin, Xudo insonlarga gunohlarni avf etishni iltijo qilib so'rash, bu gunohni yuvilish huquqini Messiaga berish orqali insonlarni podshohlikga kirishi mumkinligi ta'kidlanadi.⁴²

Lyuteranchilarning o'lim va qayta tirilish oralig'idagi ruhning holati haqida quyidagi aqidalar mavjud:

³⁵ “Heaven,” Dictionary of Christ and the Apostles, Vol. I, p. 531.

³⁶ Yangi Ahd. Matfey 3;2, 4;17, Mark 1;5, Luka 10;9, 10;11. 4-5-52-104 B.

³⁷ O'sha manba. Matfey 6;33. 11 B.

³⁸ O'sha manba. Luka 12;31. 110 B.

³⁹ O'sha manba. Matfey 19;26. 33 B.

⁴⁰ O'sha manba. Luka 18; 25. 120 B

⁴¹ Фомин. А. В. О жизни вечной на том свете в райских обителях. Москва. Новая мыслью 2009. С 51.

⁴² O'sha manba. Matfey 9;6. 14 B.

- a) Marhumlarning ruhlari Yerga qaytmaydi;
- b) Marhumlarning ruhlari tiriklar haqida hech narsa bilmaydi;
- v) Marhumlarga sig'inish nafaqat aqlsizlik, balki butparastlik hamdir;
- g) Injil, "Inson o'limidan so'ng ham nasroniylikni qabul qilib najot topishi mumkin", degan fikrni rad etadi.

Protestant oqimlari ichidan "Yettinchi kun adventistlari", "Xudoning Jahon Cherkovi" va "Iyegova shohidlari"gina o'limdan so'ng ruhning o'zi tanadan bevosita mavjud bo'lishini inkor etadilar. Ularning e'tiqodiga ko'ra, jismoniy o'limdan so'ng tana ham, ruh ham o'ladi. Ruh tana bilan birga qabrda qiyomatga qadar hech narsadan xabarsiz yotadi.

Xristianlikda qiyomat Iso Masihning qaytishi bilan bog'liq. Ularning e'tiqodiga ko'ra, qiyomatdan oldin Iso Masih farishtalar bilan birga yerga tushib barcha yovuz odamlar bilan kurashib, ularning ustidan g'alaba qozonadi, shundan so'ng yer yuzida Iso Masihning 1000 yillik hukmronligi boshlanadi. 1000 yillik oxirlab qolganida yaxshilik va yovuzlik o'rtasida so'nggi kurash, Armageddon bo'lib o'tadi. Bu kurashda Iso Masih batamom g'alaba qozonadi. Shundan so'ng, qiyomat qoim bo'ladi⁴³. Yangi Ahdda qiyomat kuni farishtalar sado chalishi, so'ng butun dunyo xalqlari yig'ilib, savol-javob bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. "Inson O'g'li O'zining ulug'vorligida, jamiki muqaddas farishtalari bilan birga kelgan paytida O'zining ulug'vor taxtiga o'tiradi. Barcha xalqlar Uning huzuriga to'planadilar. Cho'pon qo'ylarini echkilardan ajratganiday, U ularni birma-bir saralab qo'yadi"⁴⁴.

Xristianlik aqidasi oxir zamonda yuz berishi kerak bo'lgan voqealar haqida to'xtalib, jumladan quyidagilar keltirib o'tiladi:

- Yetti oxirzamon karnayi: qo'llarida yetti karnay tutgan yetti farishta karnay chaladi. Birinchi farishta karnay chalganida urning uchdan biri, daraxtlarning uchdan biri va butun o't-o'lanlar yonib ketadi. Ikkinchi farishta karnay chalganida dengizdagi jonli maxluqlarning uchdan bir qismi o'ladi. Uchinchi farishta karnay

⁴³ Vahiy, 13:1-10. // Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996. 608 B.

⁴⁴ O'sha manba. Matto, 25:31. 68 B.

chalganida osmondan bir yulduz daryolarning uchdan biriga, suv buloqlariga tushadi. To'rtinchi farishta karnay chalganida quyoshning uchdan bir qismi qorong'ilashadi. Kunduzning ham, tunning ham uchdan bir qismi yorug'siz qoladi. Beshinchi farishta karnay chalganida chayon kuchiga ega chigirtkalar chiqib, odamlarga besh oy azob beradi. Bu paytda insonlar o'lishni istaydilar, ammo o'la olmaydilar. Oltinchi farishta karnay chalganida olov bilan zirhlangan otliq qo'shin chiqib, insonlarning uchdan bir qismini o'ldiradi. Ettinchi farishta karnay chalganida chaqmoq va momoqaldiroq chaqib, zilzila bo'ladi, so'ng shiddatli do'l yog'adi⁴⁵.

- Ajdarhoning chiqishi: oxiratning yana bir alomati yetti boshli, o'nta shoxli qizil ajdarho paydo bo'ladi. Mikoil va uning farishtalari ajdarhoga qarshi urushib, uning ustidan g'olib keladilar⁴⁶.

- Yerdan chiqqan hayvon. Oxirat alomatlaridan yana biri, katta kuch qudratga ega ikkita shoxli, gapiradigan bir hayvon chiqadi. Hayvon mo'jizalar ko'rsatib, insonlarni o'ziga sajda qilishga buyuradi. Unga ibodat qiluvchilarga tamg'a bosiladi⁴⁷.

- Yetti farishta va yetti balo. Qo'lida yetti balo bor yetti farishtadir. Shu balolar bilan Xudoning g'azabi tamom bo'ladi. Birinchi farishta balo to'la birinchi kosani to'kkanida, hayvonning tamg'asi bo'lgan va unga sajda qilayotgan odamlarda yiringli yaralar paydo bo'ladi. Ikkinchi farishta qo'lidagi kosani dengizga to'kkanida, undagi barcha jonivorlar o'ladi. Uchinchi farishta qo'lidagi kosasini daryolar va buloqlarga to'kkanida, ular qonga aylanib ketadi. To'rtinchi farishta o'z kosasini Quyosh ustiga to'kadi va Quyosh insonlarni o'tday qizdiradi. Beshinchi farishta kosasini hayvon taxtiga to'kib yuboradi, uning saltanati zimistonga aylanadi. Oltinchi farishta kosasini Frot daryosiga to'kadi va kun chiqardan keladigan shohlarga yo'l ochilsin deb daryoning suvi quriydi. Yettinchi

⁴⁵Vahiy, 13:1-10. // Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996. 589 B.

⁴⁶O'sha manba. 596 B.

⁴⁷O'sha manba. 15: 1-5. 600 B.

farishta kosasini havoga to'kadi va juda ham kuchli zilzila bo'lib, tog'lar ko'zdan g'oyib bo'ladi⁴⁸.

Xristianlikda qiyomat Iso Masihning qaytishi bilan bog'liq. Ularning e'tiqodiga ko'ra, qiyomatdan oldin Iso Masih farishtalar bilan birga yerga tushib barcha yovuz odamlar bilan kurashib, ularning ustidan g'alaba qozonadi, shundan so'ng yer yuzida Iso Masihning 1000 yillik hukmronligi boshlanadi. 1000 yillik oxirlab qolganida yaxshilik va yovuzlik o'rtasida so'nggi kurash, Armageddon bo'lib o'tadi. Bu kurashda Iso Masih batamom g'alaba qozonadi. Shundan so'ng, qiyomat qoim bo'ladi⁴⁹.

Xristianlik aqidasiidagi qiyomat kuni tasvirlanishi ilk xristian va o'rta asr ilohiyotchilari tomonidan keltirib o'tilgan.

Iso Masihning yerga tushishi va qiyomat haqidagi esxatologik masalalarda katolik, pravoslav va protestantlarda katta ziddiyatlar uchramaydi, faqat quyidagi farqlar ko'rinadi:

- Katoliklarda pravoslav va protestantlarda uchramaydigan A'rof (chistilishe) g'oyasi mavjud, bu – jannat bilan do'zax orasidagi poklanish joyidir. Unda ruh jannatga kirish uchun savob amallari yetmaganda Xudoning turli sinovlaridan o'tib, poklovchi olovda yonadilar. Bu olovni katolik olimlari har xil ta'riflaydilar: ba'zilar uni qilgan gunohlari uchun vijdon azobi deb, ba'zilar esa uni haqiqiy olov deb ta'riflaydilar. A'rofdagi ruhning azoblarini engillashtirib, muddatini qisqartirish uchun o'tib ketganlar ruhi uchun xayrli ishlar, duolar va indulgensiya orqali savob yo'llash mumkin. Bu ta'limotni Foma Akvinskiy (1225-1274) ishlab chiqqan bo'lib, 1439 yildagi Florentiy soborida qabul qilinib, 1562 yil Trident soborida rasman tan olingan. Protestant va pravoslavlar A'rof ta'limotini inkor etadilar⁵⁰.

- Protestantlar esa o'limni quyidagicha tasvirlaydilar: “o'lim insonning butunlay yo'q bo'lib ketishi emas, balki uni jismoniy hayotdan holi qilish vositasi

⁴⁸ Vahiy, 13:1-10. // Injil. Turkiya. “Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati”, 1996. 601 B.

⁴⁹ O'sha manba. 20:1-6.608 B.

⁵⁰ Katolitsizm. Slovar ateista. M. Politizdat. 1990. S. 320.

bo'lib, bu ruhni tanadan ajratish orqali amalgam oshadi. Bunga Yuhannodan rivoyat qilingan Injildagi quyidagi sozlar dalil sifatida keltiriladi:

“... qabrda yotgan marhumlarning hammasi Xudo O'g'lining ovozi eshitadigan vaqt keladi. Shunda o'liklar qabrdan chiqadilar; yaxshilik qilganlar yashash uchun, yomonlik qilganlar esa hukm qilinish uchun tiriladilar...” Shuningdek, Matto va Yuhannolardan bayon qilingan injillarda Iso Masihning o'limi ham “ruhni ozod qilish”, yoki “ruhni topshirish” deb keltiriladi. Protestantlardagi “Lyuteran” jamoasi Iso Masihning yer yuzidagi ming yillik hukmronligini inkor etadilar, ularning e'tiqodiga ko'ra Iso Masih yer yuziga tushganidan so'ng qiyomat bo'ladi.

- “Iyegova shohidlari” va “Xudoning jahon cherkovi” jamoalarining e'tiqodiga ko'ra, Iso Masihning ming yillik hukmronlik davrida Xudoni tan olmay o'lgan kishilarga imkon beriladi, ular qayta tirilib Isoga imon keltiradilar. Lekin, bu fikrni “Lyuteranchilar” jamoasi inkor etadi.

Yahudiylilikda bo'lgani kabi xristianlik aqidasi ham inson maxshargohda to'plangach, unga bu dunyoda qilgan yaxshi yomon amallari yozilgan kitob beriladi va shunga asosan savol-javob qilinadi⁵¹. Bu dunyoda qilgan amallariiga qarab, insonlar jannat yoki do'zaxga kiradi.

Xristianlik e'tiqodiga ko'ra, jannat yaxshi insonlar uchun tayyorlangan, inson tasavvuriga sig'dira olmaydigan, his etiladigan abadiy rohat makonidir. Bu borada Avliyo Isak Sarin shunday deydi: “Jannat – bu barcha rohatu farog'atlarni qamrab olgan Xudoning sevgisidir”⁵². Shuningdek, inson Xudoga imon keltirish orqali unga kira oladi.

Jannatda beriladigan ne'matlar ham ruhga, ham jismga taalluqlidir. Bunga “Xudoni ma'naviy ko'rish emas, balki jismoniy ko'z bilan ko'riladi”, degan matn isbot bo'la oladi⁵³.

Injilda yaxshi insonlarga o'lim haqidagi xushxabarlar kelgan: “... o'zining otabobolari oldiga jo'nadi.”⁵⁴.

⁵¹ Farajulloh Adulboriy. Yavmul qiyoma baynal islam val masihiyya val yahudiyya. 197 B.

⁵² Mitropolit Ierofey (Vlaxos). Ray I ad. M.: Blagoveshenie. 2006.

⁵³ Qarang: (1Kor.9:12;lov.19:25-27; 1Ioan.3:2).

Xristianlik aqidasiga ko'ra, jannatning samolarda ekaniga ishoniladi, biroq "Xudoning Jahon Cherkovi" jamoasi buni rad etadilar. Jamoaning asoschisi Armstrong shunday deydi: "Muqaddas Kitobning hech bir joyida jannat mukofot sifatida va'da qilinmaydi, jannatga faqat amal orqali erishish mumkin"⁵⁵. Lekin, xristianlikdagi katolik, pravoslav va protestantlar jannatga faqat Iso Masihga imon keltirish orqali erishish mumkinligiga va jannat Xudoning marhamati bilan mukofot qilib berilishiga e'tiqod qiladilar. "Xudoning Jahon Cherkovi" jamoasining fikricha, hech bir inson ilohiy samoda bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Ilohiy samo faqat Ilohiy Xudo va uning farishtalari uchun atalgandir. Oxiratda Armageddon urushida Iso Masih Yerga tushib, Quddusda ilohiy hukmronlikni o'rnatib, abadiy uni boshqaradi, deb e'tiqod qiladilar⁵⁶.

Xristianlikda do'zax so'zining (rus. "ad") ikki xil ma'nosi bor: "daraxtning shoxini kesish", "jazolash". Muqaddas Kitobda do'zax ikkinchi ma'noda qo'llanilgan bo'lib, xristianlarning e'tiqodiga ko'ra Xudo bandalarini emas, bandalar o'zlarini o'zlari jazolaydilar. Muqaddas Kitobning bir qancha yerida do'zax aniq vasf etilgan. Ular quyidagilar:

1. Matto bayon etgan muqaddas xushxabar: "So'ng U chap tomondagilarga ham aytadi:

– Ey la'natilar! Ko'zimdan yo'qoling, iblis va uning farishtalariga tayyorlab qo'yilgan abadiy olovga mubtalo bo'ling!"⁵⁷.

2. Yana, Matto bayon etgan muqaddas xushxabarda shunday deyiladi: "Shunday qilib, bular abadiy azobga, solihlar esa abadiy hayotga noil bo'ladilar"⁵⁸.

3. Matto bayon etgan muqaddas xushxabarning yana bir yerida shunday deyiladi: "...Kimki birodariga telba desa, jahannam olovida javob beradi"⁵⁹.

⁵⁴ Ibtido, 25:17. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996. B. 662.

⁵⁵ Garol'd dj.Berri. Vo chto oni veryat. Moskva. Duxovnoe vozrojenie. 1994. S. 39

⁵⁶ Hopkins J. The Armstrong Empire. Grand Rapids. B.Erdmans Publishing Company. 1973.

⁵⁷ Matto, 25:41. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996. 68 B.

⁵⁸ O'sha manba. 25:46. 69 B.

⁵⁹ Matto, 25:41. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996..10 B.

Injilda do'zax yuqorida ajratib ko'rsatilgan iboralar bilan tasvirlangan. Shu bilan bir qatorda, xristianlik ta'limotida do'zax abadiy ekani, do'zaxiylar kecha-yu kunduz azoblanishi, ular uchun eng og'ir jazo esa, ularning Xudo bilan muomalada bo'la olmasliklari ta'kidlanadi⁶⁰.

Do'zax olovi kuydiradi, lekin yutib yubormaydi. Bir qancha jamoalar, masalan, "Iyegova shohidlari", "Xudoning Jahon Cherkovi" kabilar do'zax azobi abadiy emas, u do'zax ahlini yutib yuborib, umuman yo'q qilib tashlaydi, deb e'tiqod qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, gunohkor insonlar duchor bo'lgan do'zax azobining abadiyligi quyidagi sabablarga ko'ra xatodir:

1. Bu haqida Injilda hech nima deyilmagan;
2. U aqlga sig'maydi;
3. U Xudoning sevgisiga xilofdir;
4. U adolat mezonlariga to'g'ri kelmaydi⁶¹.

Ortodoks xristianlarning e'tiqodiga ko'ra, ular keltirgan bu sabablar asossizdir.

Birinchidan, Injilning bir qancha joylarida (masalan, Luk.16:23,24; Otkr.14:10,11; 20:10,15) do'zax azobining abadiyligi haqida ochiq-oydin xabarlar kelgan.

Ikkinchidan, Xudoning sevgisi barcha bandalari uchun bir xildir, lekin har xil ta'sir qiladi, xristianlar Xudoning sevgisini qabul qilganlari uchun oxiratda Xudoning sevgisi ularni jannatga kiritadi, ammo kofirlar Xudoning sevgisini inkor etganlari uchun Xudoning sevgisi ularning ziyonlari uchundir.

Uchinchidan, xristianlar va kofirlar o'rtasida haqiqatni o'rnatish uchun kofirlarni do'zaxning abadiy azoblari bilan jazolash, aynan adolat mezonlariga muvofiq keladi. "Xudoning Jahon Cherkovi" jamoasining e'tiqodiga ko'ra, iblis va uning malaklari abadiy azobga duchor bo'ladilar, lekin Iso Masihga ishonmaganlar bunday azobga yo'liqishlarini inkor etadilar⁶². Bunga qarshi dalil sifatida ortodoks xristianlar Injildan Mark: 9/48; Luqo: 16/23-24; Vahiy: 14/10-11; 20/10-15 larni

⁶⁰ O'sha manba. Mark, 9:48.106 B.

⁶¹ Garol'd dj.Berri. Vo chto oni veryat. Moskva. Duxovnoe vozrojenie. 1994g. 390s.

⁶² Garol'd dj.Berri. Vo chto oni veryat. Moskva. Duxovnoe vozrojenie. 1994g. S 39.

keltiradilar. Shuningdek, do'zaxning abadiyligi haqidagi ta'limot 533 yil o'tkazilgan soborda rasman qabul qilingan⁶³.

Amerika protestantligida Armageddon o'zgacha tus olgan. XVIII asr boshlarida Bostonlik S.Syuoll ushbu hodisalar aynan Amerikada bo'lib o'tishini isbotlashga harakat qilgan⁶⁴.

Shuningdek, Armageddon haqidagi g'oyalar borasida oqimlar orasida ham ba'zi ixtiloflar saqlanib qolgan. Iyegova shohidlari e'tiqodiga ko'ra, oxir zamonda Iso Masih farishtalar bilan yer yuzini yovuzlikdan tozalaydilar. Iyegova shohidlari buyuk shaxslar va avliyolar "kichik jamoa"ni tashkil etadilar, ular vafot etganlaridan so'ng, to'g'ri jannatga tushadilar. Qolganlar uchun esa, armageddondan so'ng jannat va'da qilingan. Armageddon hodisasidan keyin o'lganlar qayta tiriladilar, shuningdek, iyegova aqidasi bilmay o'tganlar ham qayta tiriladilar va ularga Iyegovani tan olish uchun imkon beriladi, deb e'tiqod qiladilar⁶⁵.

Xristianlik ta'limotining shakllanishida ilohiyot sohasidagi izlanishlar bilan birga ijtimoiy fikr, o'sha davrdagi falsafiy ta'limotlar va mutafakkirlarning g'oyalari ham muhim manba vazifasini o'tagan.

Rim davlatining inqirozi natijasida, odamlarning jaholat girdobiga botib qolgan jamiyatga va ertangi kunga ishonchi yo'qolgan. Rasmiy din odamlar orasida tobora o'z mavqeini yo'qotib borgan. Odamlar orasida qismatga, taqdiri azalga ishonish keng yoyilgan. Ilohiy xaloskor to'g'risidagi g'oya paydo bo'lgan. Qismatga, taqdiri azalga ishonish o'sha davrdagi falsafiy maktablar ta'limotida va mutafakkirlarning qarashlarida ham dolzarb mavzuga aylangan.

Milodiy I asrda Qadimgi Rimda keng yoyilgan stoiklar (grekcha *stoa* – bino oldidagi ustunli uzun ayvon degan ma'noni anglatadi, maktab asoschisi Zenon yashagan Afina shahri ibodatxonasi tarhidan olingan atama) falsafiy maktabining ta'limoti diqqatga sazovordir. Stoiklar talqinida dunyo bir butun, yaxlit voqelik bo'lib, undagi voqea va hodisalar umumiy tartibga bo'ysunadi. Dunyoning birligi

⁶³ Katolitizm. Slovar ateista. L.N.Velikovicha umumiy tahriri asosida. Moskva. Politizdat. 1991. S. 320

⁶⁴ Protestantizm. Slovar' ateista. M.: Politizdat, 1990. S. 319.

⁶⁵ O'sha asar. S. 319.

uni vujudga keltirgan va boshqarib turadigan ilohiy Logos (xudo) faoliyatining natijasidir. Ilohiy Logos borliqdagi jarayonlarni boshqarish bilan birga uning, shu jumladan odamlarning ham taqdirini oldindan belgilaydi.

Stoiklarning taqdiri azal to'g'risidagi ta'limoti Senekaning qarashlarida mukammal bayon qilingan. Uning fikriga ko'ra, borliq moddiy va ruhiy dunyolarga bo'linadi. Moddiy dunyo ruhiy dunyoga bo'y-sunadi va mustaqil faoliyatga qodir emas. Undagi tartib va mukammallik olamiy aql, ya'ni xudo faoliyatining mahsulidir. Xudo barcha narsa va voqealarning sababchisi, taqdirni belgilovchi oliy borliqdir. Tabiat voqeliklarida ruh mavjud. Voqeliklarda mujassamlangan ruh xudo ruhining bir zarrasini tashkil etadi. Tirik mavjudotlarda joylashgan ruhlar o'z qobig'ini tark etib, «ozodlikka chiqishga» va mutlaq ruhga qo'shilishga intiladi. Diniy rivoyatlardan ma'lumki, ruhning tanani tark etishi «tabiiy» hodisadir, shunday ekan, odamlar hayotga va o'limga bir xilda munosabatda bo'lishlari kerak. Bu esa xristianlik metafizikasiga qadimgi yunon falsafasi ta'sirni isbot qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xristianlik va yahudiylik dinlarining ikkisida ham insonlarning qayta tirilishi, savol-javob qilinishi, hayotlik chog'laridagi amallariga qarab jannat yoki do'zaxga tushishi masalasi mavjud. Faqatgina bu tushunchalarning sodir bo'lish holati va ularning belgilari turlicha tavsiflangan.

Shunga qaramasdan, undagi mazmun-mohiyat bir xil ya'ni: o'lim inson mavjudligining tugallanishi emas, balki uning jismida hayot alomatlari tugagach ham inson ruhining mavjud bo'lishidir.

II BOB ISLOM MANBALARIDA G'AYBIYOT MASALASI

2.1 Qur'oni karimda kavniyot va g'aybiyot masalasi

Sunnat “G’ayb olami” bilan aloqador mavzular haqida so’z yuritgan bo’lib, ularning ba’zilari bizning ushbu olamimizda ko’rinmaydigan narsalar bilan bog’liqdir. Masalan, Sunnatda Alloh taolo ularni turli xil vazifalar uchun tayinlab qo’ygan maloikalar: “Robbingning askarlarini O’zidan boshqa hech kim bilmaydir” (Muddassir:31)⁶⁶ va bizga o’xshab mukallaf bo’lgan, bizlarni ko’rib bizlar esa ularni ko’rmaydigan Yerda maskan topganlardan bo’lmish jinlar, Alloh taoloning huzurida bizlarni yo’ldan urishga, botil va yomonliklarni bizga chiroyli qilib ko’rsatishga qasam ichgan ularning toifasidan bo’lmish Iblis: “U: «Sening izzating ila qasamki, men ularning barchasini ig’vo qilaman. Magar ulardan tanlangan bandalaringgina (mustasnodir)», dedi.” (Sod:82-83)⁶⁷, shuningdek, Arsh, Kursiy, Lavh va Qalamlar haqida so’z ketgan.

Ana shu g’aybiyotning ba’zilari barzax hayotiga, qiyomat qoyim bo’lishidan oldingi o’limdan keyin bo’ladigan hayot bilan aloqadordir. Ularda qabrdagi savol-javob, undagi rohat yoki azob to’g’risida gapirilgan. Yana ba’zilari esa Oxirat hayoti, ba’s, hashr, mavqif, Qiyomat kuni qo’rqinchlari, Katta shafolat, Mezon va hisob, Sirot, jannat va undagi har xil moddiy va ma’naviy ne’matlar-u, odamlarning undagi darajalari, do’zax va undagi har xil hissiy va ma’naviy uqubatlar-u, odamlarning u yerdagi manzillari bilan taalluqlidir.

Ana shu ishlarning barchasi yoki ko’pchiligi Qur’oni karimda ham zikr qilingan.

Islom ta’limotiga ko’ra, dunyodagi barcha mavjudot borki, vafot etadi. Muqaddas manbalarda insonning vafot etishi belgilab qo’yilgani va bundan hech kim omonda bo’lmasligi haqida juda ham ko’plab dalillar keltirilgan. Jumladan, Qur’oni karimning “Voqea” surasi 60 – oyatida aytiladi: “Sizlarning o’rtangizda o’limni ham Biz o’lchab qo’ygandirmiz”⁶⁸. “Niso” surasining 78 – oyatida esa: “Qaerda bo’lsangiz ham o’lim sizlarni topadi, hatto mustahkam qal’alar ichida

⁶⁶ Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolar tarjimai. “Toshkent islom universiteti”, 2001. 576 B.

⁶⁷ O’sha manba. 457 B.

⁶⁸ O’sha manba. 536 B.

bo'lsangiz ham"⁶⁹, deyilgan. Bu oyatlar har bir inson vafot etishi, faqatgina yagona Alloh abadiy ekaniga dalolat qiladi.

Islom ta'limotiga, yuqorida keltirilgan yahudiylar va nasroniylarda mavjud bo'lgan, "o'lim birinchi sodir etilgan gunoh tufayli voqe bo'lgan", degan g'oya mutlaqo ziddir. Qur'oni karimda o'lim faqatgina Alloh taoloning amri bilangina voqe bo'lishi ta'kidlangan. "Oli Imron" surasi 156 – oyatida shunday deyiladi: "Alloh tiriltiradi ham, o'ldiradi ham"⁷⁰. Shuningdek, o'limga olib boruvchi biror sabab haqida ham so'z yuritilmagan. Faqatgina, o'lim kelganda nafsning ojizligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. "Voqea" surasi 83-84 oyatlarida shunday deyiladi: "Bas, qachonki, (kishining joni) halqumiga yetganda (jon berish paytida), holbuki, o'sha vaqtda sizlar(qo'lingizdan hech ish kelmay) qarab turursiz"⁷¹. Ya'ni, Alloh yaratuvchi, barcha ishlar uning o'ziga qaytguvchi, hech bir jon uning izni va qadarisiz dunyoga kelmaydi yoki vafot etmaydi. Qur'oni karimning boshqa ko'plab oyatlarida (Mu'minun, 80; G'ofir, 68)⁷² o'lim faqat Allohning izni bilan bo'lishi, barcha narsa uning qo'lida ekaniga ko'plab dalillar keltirilgan.

Ma'lumki, insonlarning so'nggi manzili bu jannat va do'zaxdir. Inson ulardan biriga etgandan keyin unda abadiy qoladi. Ahli sunna va jamoa e'tiqodicha, ushbu ikki tushuncha moddiy bo'lib, ulardagi narsalar ham ruhga va ham jismga tegishlidir. Ulardagi ne'matlar va azoblar ham jismga, ham ruhga beriladi. Jannat va do'zax abadiy bo'lib, ularga tushgan kishilar ham unda abadiy qoladilar. Faqat, ba'zi osiy mo'minlar o'z qilmishlariga yarasha jazoni o'taganlaridan keyin, do'zaxdan jannatga chiqadilar.

Islom dinida jannat (arab. bog', bo'ston) taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat va farog'atda yashaydigan joydir. Qur'onda jannat haqida bir necha yerda bayon qilingan (47: 15-55; 46-78; 76: 11-22). Islom aqidasi ko'ra, bu dunyodagi hayotida imonli holida ezgu ishlar bilan shug'ullangan kishilarga Alloh tomonidan jannatdan joy beriladi. U yerda g'am-g'ussa va tashvish yo'q. Odamlar yaxshi ko'rgan barcha narsalar muhayyo etiladi, hatto juftlari ham birga bo'ladi. Qur'onda

⁶⁹ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimai. "Toshkent islom universiteti", 2001. 90 B.

⁷⁰ O'sha manba. 70 B.

⁷¹ O'sha manba. 537 B.

⁷² O'sha manba. 346,475 B.

jannat daraxtzorlari ostidagi ariqlarda zilol suvlar oqib turadi, deb ta'riflanadi. U yerda insonlar qarimaydi ham, kasal ham bo'lmaydi. Jannatning sakkiz darvozasi bo'lib, har bir darvozani qo'riqlovchi farishtalari bor. Jannatda eng oliy ne'mat – Allohning jamolini ko'rish hisoblanadi⁷³.

“Do'zax – din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joydir. Diniy tasavvurga ko'ra, do'zax ichida olov yonib turadigan dahshatli chuqurlik, achishtiruvchi sovuqlikdan iboratdir. Do'zax bir necha tabaqadan iborat bo'lib, har bir gunohkor o'z gunohiga qarab tegishli tabaqalarda azoblanadi. Islom diniga ko'ra, do'zaxning yetti darvozasi bo'lib, (Hoviya, Jahim, Saqar, Lazo, Xutama, Sair, Jahannam) har bir darvozani qo'riqlovchi farishtasi bo'ladi⁷⁴.

Musulmon ilohiyotchilari kavniyot olamini 3ga bo'ladilar:

1. insonlar
2. farishtalar
3. jinlar

Mo'min-musulmonlar jin deb ataluvchi maxluqotlar borligiga iymon keltiradilar. Ularni oddiy holatlarda ko'rib bo'lmaydi. Biz ular haqidagi ma'lumotlarni eng ishonchli manbalar, Qur'oni Karim va hadisi shariflardan olamiz. Qur'oni Karim nozil bo'layotgan paytda arab qabilalari jinlarga maxfiy, noravshan xudolar deb e'tiqod qilardilar. Ular jinlarning nasabi Alloh taologa yetib boradi, uning jinlardan sheriklari bor, degan buzuvq e'tiqodga ham bo'ysunishardi. Shuningdek, arablar jinlar g'oyibdan xabardor, folbin va munajjimlarga osmon sirlarini aytib turishadi degan o'yda edilar. Arablarda jinlarning hukmi yer yuzida o'tadi, degan xom xayol bo'lib, agar ulardan birortalari ma'lum bir yerga borib yotib qolmoqchi bo'lsalar, «Ushbu joyning xo'jayin jinidan panoh so'rayman», degan ma'nodagi duoni qilishardi. Bizning yurtlarda ham hatto hozirgi vaqtgacha kishilarda yuqorida aytilganga o'xshash turli-tuman buzuvq, bid'at-xurofotdan iborat tushunchalar mavjud va ular bu yolg'on e'tiqodga bo'ysunadilar. Ayniqsa, keyingi paytda kishilarda ruhiy bo'shliq haddan tashqari ziyoda bo'lganligidan bu

⁷³ Muhammad Said. Al-yavmul axira fi adyonil samaviya. Qatar. 1992. 157 B.

⁷⁴ O'sha manba. .S. 169

ma'nodagi gap-so'zlar ko'payib ketdi. Shu bilan birga qadimda ham, hozirda ham jinlarni umuman inkor etadiganlar bor. Ular jin haqidagi har bir so'zni afsona, bekorchi gap deyishadi. Jinlar haqidagi hodisalarning guvohi bo'lgan kishilarni jinniga, miyasi ayniganga chiqarishadi. Islom esa jin haqida xuddi boshqa masalalardagi kabi haqiqatni bayon qiladi. Islom jin borligini isbot qilib, u haqidagi to'g'ri tasavvurni bayon etib, noto'g'ri tushunchalarni rad etadi. Shu bilan birga jinlardan kutiladigan mavhum qo'rqinch va xavfu xatarni ham rad etadi.

Jinlar haqiqatda bor mavjudotlar bo'lib, asli o'tdan yaratilgan. Jin so'zining lug'aviy ma'nosi esa «to'silgan» degani, ya'ni, odamlar ko'zidan to'silgan narsa. Shu sababli ham u insonlarga ko'rinmaydi. Ular o'zlari ko'rinmay turib, bizlarni va boshqa narsalarni ko'rishlari mumkin. Shu bilan birga turli shakllarga kirishlari ham mumkin. Ularning ichida ham xuddi odamlarga o'xshab iymonsiz-iymonli, yaxshi-yomon, adashgan va hidoyatda yurganlari, firibgar va soddalari bor. Jinlardan ham Qur'onga, Payg'ambar (a.s)ga iymon keltirib yaxshi yo'lda yurganlari jannatga, iymonsiz bo'lib yomon yo'lda yurganlari do'zaxga tushadilar. Ular odamlarga hech qachon yordam bera olmaydilar va g'oyib sirlarini bilmaydilar, chunki Qur'oni Karim nozil bo'lgandan so'ng ular bu xislatlardan mahrum bo'lganlar.

Ba'zi sharqshunos olimlar “jin” so'zi lotincha “genie” yoki “Genius” o'zagidan kelib chiqib, arablarga o'tganligini ta'kidlaydilar. Barcha musulmon ulamolari esa bu fikrni rad etib, bu so'z sof arabcha ekanligiga ittifoq qilganlar. Shu bilan birga aksariyat sharqshunos olimlar ham aynan shu fikrdadir.⁷⁵

“Jin” so'zi insoniyat turiga o'xshamagan, ko'zga ko'rinmas xilqatlar (mavjudotlar) uchun qo'llaniladigan umumiy nomdir. Musulmon ulamolari jinlarni inson va farishtadan boshqa uchinchi turning nomi sifatida aytib o'tadilar.⁷⁶ «Saba'» surasida bir guruh jinlar Sulaymon alayhissalomga xizmatkor bo'lganliklari, u zot hassaga suyanib turib vafot etganliridan so'ng ham u tirik,

⁷⁵ Watt. W.M . Modern dunyada islam vahyi.(tre. Mehmet S. Aydin). Ankara. 1982. 62 b.

⁷⁶ Rog'ib Asfahoniy. Al-Mufradot. “Jin” moddasi. 60 B.

bizni kuzatib turibdi, deb o'ylab, mashaqqatli ishda davom etganliklari haqida oyatlar bor.

Islomdan avvalgi vaqtda jinlar osmonga chiqib maloikalarning o'zaro suhbatlarini, jumladan, yaqin kunlarda sodir bo'ladigan ba'zi ishlar haqidagi ma'lumotlarni yashirin eshitib, yerdagi folbinu munajjimlarga birga o'nni qo'shib yetkazishar ekan. Oradan ancha vaqt o'tib, osmon xabariga quloq osgani chiqsalar, ularni yulduzlardan uzilib chiqqan uchqunlar urib haydaydigan bo'lib qolibdi. Ular yerga o'z qavmlari huzuriga qaytib, «Nima bo'ldi ekan, bizni uchqunlar quvadigan bo'lib qoldi-ku? deyishadi. Shunda ba'zilari, dunyoda ulkan, olamshumul o'zgarish bo'lgan bo'lsa kerak, deyishadi. Mashriqu mag'ribni kezib bizdan osmon xabarini to'sgan narsani qidirish zarur, degan qarorga kelib, safarga otlanadilar. Rivoyatlarda naql qilinishicha, Nasibin nomi bilan ataluvchi joyda yashovchi jinlardan yetti nafari Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Bomdod namozida qiroat qilayotganlarini eshitib to'xtashgan, bizdan osmon xabarini to'sgan narsa shu, deb o'z qavmlariga qaytib, bo'lgan hodisani aytadilar. Shunda Alloh taolo O'z Payg'ambariga «Jin» surasini nozil qildi.

Mazkur suraning 8,9,10- oyatlarida Alloh taolo jinlarning ana osha holatlarini o'z tillaridan hikoya qilib keltiradi;

8. Va albatta biz osmonga talab qildik. Bas, uni kuchli qo'riqchilarga va uchqunlarga to'lgan holda ko'rdik.

9. Va, alabatta, biz u (osmon)da tinglashga qulay joylarga joylashib olar edik. Endi esa, kim quloq solsa, o'zini poylab turgan uchqunga duchor bo'ladir.

10. Va, albatta, biz yer yuzidagilarga yomonlik iroda qilindimi yoki Robbilari ularga rushdni iroda qildimi-bilmasimiz.

Qur'oni Karimda jinlar haqida o'nta surada qirqqa yaqin oyat bor. Bitta butun boshli sura «Jin» surasi deb nomlangan.

Jinlar olovdan yaratilgan maxluqotlardir. Alloh taolo «Rahmon» surasida: «Insonni sopolga o'xshash qurigan loydan yaratdi. Va jinlarni o't-alangadan yaratdi», degan (14-15-oyatlar)⁷⁷.

⁷⁷ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimai. "Toshkent islom universiteti", 2001. 531 B.

Alloh taolo jinni tutuni yo'q xolis olovdan yaratdi. Oyatladi «marijin» so'zi shuni anglatadi. Olovdan jinning yaratilishi insonning ilm doirasiga kirmaydigan narsa. Qur'on buni bizga bildiruvchi yagona manba. Biz ushbu xabarga iymon keltirishimiz lozim. Bu jarayon qanday kechganligini Allohning O'zi biladi. Bizga kengroq bildirishni xohlamagan ekan va bizdan bilish ilmini talab qilmagan ekan, bekorga ovora bo'lishimizning hojati yo'q.

O'zining olovdan yaratilganini Iblis ham esga olgan. Bu haqda «A'rof» surasida quyidagilar aytilgan: «U zot: «Senga amr etganimda sajda qilishingdan nima to'sdi?» dedi. U: «Men undan yaxshiman, meni o'tdan yaratding va uni loydan yaratding», dedi» (12-oyat)⁷⁸.

Alloh taolo O'z amrini bajarmagan, Odamga sajda qilmagan Iblisdan: «Senga amr etganimda sajda qilishingdan nima to'sdi?» deb so'raganida, u «tavba qildim, xato qilibman» deyish o'rniga: «Men undan yaxshiman, meni o'tdan yaratding va uni loydan yaratding», dedi». Uning fikricha, o't loydan ko'ra yaxshi ekan.

Alloh taolo «A'rof» surasida quyidagilarni aytadi: «Ey, Odam bolalari, shayton ota-onangizni o'zlariga avratlarini ko'rsatish uchun ustlaridan liboslarini yechib, jannatdan chiqqanidek, sizni ham fitnaga solmasin. Albatta, u va uning yordamchilari sizni siz ko'rmaydigan tomondan ko'radir» (27 - oyat)⁷⁹. Demak, jinning imkoniyatlari insonnikiga nisbatan ko'proq. Inson shaytonni ko'rmaydi, ammo u insonni ko'radi. Bu esa o'z navbatida, unga qo'shimcha imkoniyat beradi, insondan esa qo'shimcha xushyorlik talab qilinadi. Chunki ochiq-oydin dushman bo'lgan shayton sharridan doimo extiyot bo'lib turish kerak. Buning uchun kuchli iymon va e'tiqod zarur.

Alloh taolo «Zariyat» surasida aytadiki: «Jin va insonni faqat Menga ibodat qilish uchungina yaratdim . Men ulardan rizq xohlamayman va Meni ovqatlantirishlarini ham xohlamasman» (56-57-oyatlar)⁸⁰.

Demak, inson kabi jin ham Alloh taolaga ibodat qilishi lozim. Alloh taolo «An'om» surasida: «Ey, jin va ins jamoalari, sizlarga o'zingizdan

⁷⁸ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimai. "Toshkent islom universiteti", 2001. 152 B.

⁷⁹ O'sha manba. 153 B.

⁸⁰ O'sha manba. 523 B.

bo'lgan Payg'ambarlar kelib, oyatlarimni sizga aytib bermadilarmi, sizlarni ushbu kuningizga duchor bo'lishingiz haqida ogohlantirmadilarmi?» Ular: «O'zimizga qarshi guvohlik berdik», derlar. Ularni hayoti dunyo g'ururga ketkazdi va o'zlariga qarshi kofir bo'lganlarini aytib, guvohlik berdilar», degan (130-oyat)⁸¹. Ushbu oyatda jin va ins – odam jamoalariga Alloh taolo tomonidan berilayotgan savol ularga o'zlaridan bo'l-gan Payg'ambarlar borgan-bormaganini bilish uchun emas. Chunki Alloh taolo Payg'ambarlar yuborganini juda yaxshi biladi. Ammo savol jinu inslarga o'zlaridan bo'lgan Payg'ambarlar kelganiga ularni iqrор qildirish uchun berilmoqda. Qiyomat kunida butun maxluqot mahshar maydonida to'planganida kofir jinlar va kofir inslarning iqrор bo'lib, ayblarini bo'yinlariga olib, o'zlari o'zlariga qarshi guvohlik berishlari uchun shunday savol tashlanmoqda.

Qiyomat kuni Alloh taolo ulardan:

«Ey, jin va ins jamoalari, sizlarga o'zingizdan bo'lgan Payg'ambarlar kelib, oyatlarimni sizga aytib bermadilarmi, sizlarni ushbu kuningizga duchor bo'lishingiz haqida ogohlantirmadilarmi?» deb so'raganda:Ular: «O'zimizga qarshi guvohlik berdik», derlar».Ya'ni, iqrormiz, bizga o'zimizdan chiqqan Payg'ambarlar kelib, oyatlaringni aytib berdilar va ushbu qiyomat kuniga duchor bo'lishimiz haqida ogohlantirganlar, deydilar. «Ularni hayoti dunyo g'ururga ketkazdi va o'zlariga qarshi kofir bo'lganlarini aytib, guvohlik berdilar». Ushbu oyatda jinlar jamoasiga Payg'ambarlar kelganiga ishora qiluvchi ma'no bor. Ammo boshqa o'rinlarda bu haqda aniq oyat yoki hadis yo'q. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ham inslarga, ham jinlarga Payg'ambar ekanliklari Qur'onda ham, sunnatda ham, voqe'likda ham sobit haqiqat. Demak, kofir jin va inslar qiyomat kunida yuqorida ta'riflangan nochor holga tushadilar. Ularning bu ko'ygа tushishlariga dunyodagi amaliyotlari sabab bo'lgan. Chunki bu dunyoda:

«Ularni hayoti dunyo g'ururga ketkazdi».

⁸¹ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. "Toshkent islom universiteti", 2001. 144 B.

Ular dunyo hayoti matohlariga aldandilar. Uning ketidan yurib, kofir va osiy bo'ldilar. Oxir-oqibat: «...O'zlariga qarshi kofir bo'lganliklarini aytib, guvohlik berdilar». Bu esa ular o'zlarini himoya qilishga hech qanday bahona topa olmay, noiloj qolishlarining yorqin dalilidir.

Alloh taolo «Jin» surasida: «Sen ayt: «Menga vahiy qilindiki, albatta jinlardan (bir necha) nafari quloq osdilar va dedilar: «Biz ajoyib Qur'onni eshitdik. U to'g'ri yo'lga hidoyat qiladir. Bas, biz unga iymon keltirdik va o'z Robbimizga birovni shirk keltirmasmiz», degan (1-2-oyatlar)⁸².

Bu ikki oyatda Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi vasallamga xitob qilib, aytishlari kerak bo'lgan ma'noni ham bayon qiladi, ya'ni vahiy orqali etti nafar jin u kishining qiroatlariga quloq osgani va qavmlariga borib, biz ajoyib Qur'on eshitdik, deb xabar berganlari haqida aytishni buyuradi. Demak, jinlar Qur'oni Karim tilovatini eshitishlari bilan bu oddiy so'z emasligini, dunyoda yangi olamshumul voqea paydo bo'lganligini fahmlab, jinlar hayotida ham katta o'zgarish bo'lishiga sabab bo'lganini darhol tushunib etganlar. Ikkinchi oyatda mazkur jinlarning o'z qavmlariga aytgan gaplari davom etadi:

«U to'g'ri yo'lga hidoyat qiladir. Bas, biz unga iymon keltirdik va o'z Robbimizga birovni shirk keltirmasmiz». Jinlar o'z aql-farosatlari ila Qur'onni tushirgan Alloh ularning Robbilari ekanligi bilib, U zotga iymon keltirganlar va Unga sherik bo'lishi mumkin emasligini ham tushunib etganlar. Mushriklarga kabi Allohga shirk keltirmasliklarini ta'kidlaganlar.

«Jin» surasida jinlarning tilidan quyidagilar aytiladi: «Va, albatta, bizdan musulmonlar (bor) va bizdan adashganlar (bor). Kimlar Islomga kirsa, bas, ular haq yo'lni tanlabdilar. Va ammo adashganlar, bas, jahannamga o'tin bo'libdilar» (14 -15 - oyatlar). Ushbu ikki oyatda jinlarda ham xuddi insonlar kabi musulmonlar borligi yana bir bor ta'kidlanmoqda. Musulmonlari to'g'ri yo'lni tanlagan jinlar. Ya'ni, ko'r-ko'rona emas, balki tanlash, izlash, o'rganish, solishtirish oqibatida Islom shubhasiz ilohiy din bo'lib, o'ziga ergashganlarni ikki dunyo saodatiga

⁸² Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. "Toshkent islom universiteti", 2001. 573 B.

erishtirishiga ishonch hosil qilgandan so'ng musulmon bo'lganlar. Shuningdek, ularning ichida adashgan kofirlari ham bor.

Islom musulmonlarni farishtalarga iymon keltirishga chaqiradi. Bu iymon ruhiy hayotning asosidir. Bunday hayot esa kishilarni faqat yaxshilikka undaydi. Bundan maqsad, insonni kamolot cho'qqisiga olib chiqishdir. Shuning uchun ham farishtalarga iymon keltirish Islom dinining asoslaridan biridir. Qur'on inson tuproqdan, jinlar o'tdan yaratilganini aytib o'tgan. Lekin farishtalar nimadan yaratilganini payg'ambarimiz o'z hadislarida «farishtalar nurdan yaratilgandur», deb bayon qilganlar. Shundan ko'rinib turibdiki, ular latif, ko'zga ko'rinmaydigan, ushlab bo'lmaydigan narsadan yaratilgan ekan. Agar biz farishtalarni ko'zimiz bilan ko'rmasak ham, aqlimiz ularning borligini inkor etmaydi.

Farishtalar insonlardan farq qiladi. Ularning o'z ixtiyorlari yo'q, ular doimo Allohga itoat qiladilar, isyon qilishga imkonlari yo'q. Qur'oni Karimda shunday deyilgan:

«Osmonlaru yerdagi barcha jonzorlar va farishtalar faqat Allohga sajda qilurlar. Ular mutakabbirlik qilmaslar. Ular ustilaridagi Robbilaridan qo'rqurlar va o'zlariga amr qilingan narsalarni qilurlar» («Nahl» surasi, 49-50-oyatlar)⁸³.

Farishtalar bajaradigan ishlarning eng ahamiyatlisi, Allohning vahiysini payg'ambarlarga yetkazishdir. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga Qur'on oyatlarini keltirgan farishtaning ismi Jabroildir. Qur'on uni «Ruhul Amin» va «Ruhul Qudus» deb ham ataydi. Farishtalarning vazifalaridan yana biri payg'ambarlarni qo'llab-quvvatlash, ularning og'irini yengil qilishdir. Qur'oni Karimda Alloh taolo Iyso payg'ambarni Ruhul Qudus farishta bilan qo'llab-quvvatlaganini aytib o'tadi. Shuningdek farishtalar taqvodor mo'min-musulmonlarni ham qo'llab-quvvatlab, ularni to'g'ri yo'lga ilhomlantiradilar. Shuningdek, farishtalar mo'minn-musulmonlarning jonini ozor yetkazmay olishda ham ishtirok qiladilar. Bu sanab o'tilgan ishlardan tashqari, farishtalarning boshqa vazifalari ham ko'pdir.

⁸³ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimai. "Toshkent islom universiteti", 2001. 272 B.

Qur'oni Karimda aytilishicha, Alloh taolo insonga bir necha farishtani biriktirib qo'yganki, ular insonning qilgan ishlarini yozib boradilar. O'ng tomondagi farishta yaxshiliklarni, chap tomondagisi yomonliklarni yozib boradi. Agar inson shu narsaga ishonsa, dunyoda hech yomonlik qilmaydi.

Alloh taolo «Qof» surasida «Vaqtiki ikki kutib oluvchi o'ngda va chapda o'tirgan hollarida kutib olurlar. Biror so'z aytmas, magar huzurida hoziru nozir borlar», degan (17-18 oyatlar)⁸⁴.

Demak, insonning ikki tarafida ikki farishta joylashgan va ular insonning har bir amali va so'zlarini kutib oladi. Oyatda ularni «ikki kutib oluvchi», deb aytmoqda.

«Vaqtiki ikki kutib oluvchi o'ngda va chapda o'tirgan hollarida kutib olurlar». Mazkur farishtalar sodir bo'lgan barcha hodisalarni yozib borishga vakil qilinganlar.

«Biror so'z aytmas, magar huzurida hoziru nozir borlar». Biz «hoziru nozir» deb tarjima qilgan ikki farishtaning arabcha nomi «Raqib va Atiyd»dir. Insonning og'zidan chiqqan bitta lafz ham ularning narzlaridan chetda qolmaydi. Ular hamisha hoziru nozirdirlar, darrov yozib qo'yadilar.

Ta'kidlash lozimki, Alloh taolo bandasining amallarini hisob-kitob qilishda bu ikki farishtaning ishiga muhtoj emas. O'zi hamma narsani komil ilmi ila bilib turadi, hattoki, avvalgi oyatlarda aytilganidek, odamning hayolidan o'tgan narsalarni ham biladi. Mazkur farishtalarning yozib borishining boshqa hikmati bor, qiyomat kuni insonga hujjat sifatida ko'rsatiladigan namoi a'mol ushbu farishtalar yozgan yozuvlar bo'ladi. Bunga iymon keltirish esa, har bir bandaning ko'proq yaxshilik qilishga, yomonlikdan yanada ko'proq chetlanishiga bois bo'ladi. Ushbu mavzuda ko'plab rivoyatlar kelgan, shulardan ba'zilar bilan tanishib chiqsak, tushunchalarimiz mukammalroq bo'ladi.

Ali ibn Abi Tolha Abdulloh ibn Abbos (r.a)dan rivoyat qiladiki, u zot: «Biror so'z aytmas, magar huzurida hoziru nozir borlar» oyati haqida: «har bir yaxshi yomon gapi yozib boriladi. Hattoki, edim, ichdim, bordim, keldim, ko'rdim

⁸⁴ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. "Toshkent islom universiteti", 2001. 519 B.

kabilarni ham. Payshanba kuni uning ishi va gapi arz qilinadi, yaxshiligi, yomonligi bori qoldirilib, qolgani tashlab yuboriladi», degan ekanlar.

Imom Hasan Basriy «...o'ngda va chapda o'tirgan holda» oyatini o'qib turib: «Ey, odam bolasi, sening sahifang ochildi, ikki hurmatli farishta senga vakil qilindi, bittasi o'ng tarafingdagi yaxshiliklaringni yozadi, ikkinchisi chap tarafingdagi yomonliklaringni yozadi, nimani xohlasang qilaver, ozmi, ko'pmi. Vafot etganingda, sahifang berkitiladi, qabringda bo'yingga osib qo'yiladi. Qiyomat kuni shunday holda qabringdan chiqasan...» degan ekanlar.

Insonlar tarix davomida Allohdan boshqa ko'rinmas g'ayrioddiy xilma-xil mahluqotlarga ham ishonganlar. Turli davr va hududlarda bu mahluqotlarning yaxshi va yomonlariga xilma-xil nomlar berilgan. Ular ba'zan ilohiylashtirilgan yoki ikkinchi darajali ilohiy mahluqotlar sifatida ko'rilgan, ba'zida esa insoniy xususiyatga ega ekaniga ham ishonganlar. Hattoki, yahudiylikda va xristianlikda ham ular o'zaro qorishtirib yuborilgan. Islom dinida esa farishta, payg'ambarlar, shayton, jinning xususiyatlari aniq qilib aytilgan.

Ulamolar qiyomat alomatlarini uch turga bo'ladilar:

Birinchi tur – bir marta sodir bo'lgan va qaytib bo'lmaydigan alomatlar. Masalan, Rasulullohning yuborilishini keltirish mumkin. Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, payg'ambar Muhammadning kelishi qiyomat alomatlaridan biridir⁸⁵.

Ikkinchi tur – bir necha marta takror yuz berishi mumkin bo'lgan yoki insonlar ularni bo'ldi, deb o'ylaydigan, vaholanki hali yuz bermagan alomatlar. Bunga vaqtning tezlashishi, zilzilalarning ko'payishi, qotilliklarning ko'payishini misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisda: “Qiyomat qoim bo'lish arafasida jaholat ko'chayib, qotillik ko'payadi”⁸⁶, deyiladi. Ulamolar hadisni sharhlab shunday deydilar: “ma'lum bir zamonda yashagan insonlar “bizning davrimizda qotillik ko'payib ketdi” deyishi mumkin, vaholanki

⁸⁵ F. Abdulboriy. Yavmul qiyamatu fil islam, masihiya va yahudiyya. Dor al-ifoq al-arabiya. S 2.

⁸⁶ O'sha manba. .S.111

shunday zamonlar kelishi mumkin johillik va qotillik yanada oshib, uning ko'rganlari hech narsa bo'lmay qoladi"⁸⁷.

Uchinchi tur – kelajakda yuz berishi bashorat qilingan alomatlaridir. Bunga Quyoshning Sharqdan emas, G'arb tomondan chiqishini keltirib o'tish mumkin.

Shuningdek, qiyomat alomatlari ulamolar tomonidan ikkiga – katta va kichik alomatlarga ajratilishini ham ta'kidlab o'tish lozim. Katta alomatlardan eng muhimlari bu – Dajjolning chiqishi, Iso payg'ambarning tushishi va dabbatul arzdir. Kimda kim ushbu voqealar sodir bo'lganidan so'ng tavba qilib imon keltirgan taqdirda ham imoni qabul qilinmaydi. Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisda: “uch narsa – Dajjol, dobba (maxluq) va Quyosh mag'ribdan chiqqandan so'ng kim imon keltirsa, unga imonidan foyda yo'q”⁸⁸, deyilgan.

Quyida oxir zamonda yuz beradigan katta alomatlar haqida qisqacha so'z yuritamiz.

1. Dajjolning chiqishi qiyomatning eng katta alomatlaridan biri bo'lib, aslida, yolg'onchi sifatiga ega bo'lgani uchun ham Dajjol laqabi berilgan. Shuningdek, u haqni botil bilan ko'mib tashlash qobiliyatiga ham ega bo'ladi. U yahudiy bo'lib, Madinai Munavvaraga nisbatan mashriq tarafdin chiqadi. Dajjol odamlar orasida ahli salohlikni va taqvodorlikni da'vo qiladi. Keyinroq esa, xudolik da'vosini qiladi. Unga juda ko'p odamlar, xususan, yahudiylar ergashadi. Uning tana tuzilishida o'ziga xos alomatlari bo'ladi. Jumladan, bir ko'zi tep-tekis bo'ladi, bolasi bo'lmaydi, Makka va Madinaga kira olmaydi, eng asosiysi peshonasiga “kofir” deb yozilgan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, Dajjol sehr, insonlarni o'ldirish va tiriltirish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. U shu yo'l orqali odamlarni o'ziga ergashtirishga harakat qilishi manbalarda ta'kidlanadi.

2. Isoning yer yuziga qayta tushishi qiyomat qoim bo'lishidan oldin sodir bo'ladigan eng ulkan alomatlardan biridir. Bu borada Rasulullohdan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi: “Jonim qo'lida bo'lgan zotga qasamki, albatta,

⁸⁷ F. Abdulboriy. Yavmul qiyamatu fil islam, masihiya va yahudiyya. Dor al-ifoq al-arabiya. S 112

⁸⁸. O'sha asar. S 113.

kelajakda Ibn Maryam odil hakam bo'lgan holda keladi. So'ng xochni sindiradi, cho'chqani o'ldiradi va jizyani bekor qiladi”.

Islom aqidasi ko'ra, Iso payg'ambar qiyomatga yaqin tushib, islom shariati ila hukm yuritib adolat o'rnatadilar. Yuqorida keltirilgan hadisni ulamolar sharhlab shunday deydilar: “Xochning sindirilishi xoch ahliga qarshiliklari, to'ng'izni o'ldirishlari unga tegishli narsalarni yo'q qilishlariga ishoradir. Jizyani bekor qilishlari esa, islomdan boshqa dindagilardan musulmonlikdan boshqa narsani, jumladan jizyani ham qabul qilmasliklaridir”⁸⁹.

Musulmon mutafakkirlari orasida Iso payg'ambar bilan bog'liq bahsli masala borligini ham qayd etib o'tish lozim. Ma'lumki, aqidada Iso payg'ambar vafot etmagani va yuqorida ta'kidlanganidek, qiyomatga yaqin tushishi belgilab qo'yilgan. Biroq, ba'zi mutafakkir olimlar Iso payg'ambarning vafot etgani haqida keltirilgan hadis “ohod hadis” ekani, bu aqida xristianlik dinidan o'tgan, degan fikrlarni bildirganlar.

3. Quyoshning G'arbdan chiqishi ham qiyomatning katta alomatlaridan biri hisoblanib, Rasulullohdan rivoyat qilingan hadisi sharifda: “Qiyomatning alomatlaridan biri Quyoshning G'arbdan chiqishidir..”, deyiladi.

4. Dobbatul arz. Qur'oni karim Naml surasida “... Biz ular uchun Erdan bir dobba chiqaramiz...”⁹⁰ ma'nosidagi oyat keltiriladi. Manbalarda dobba – jonivor, ma'nosi esa, “asta yuruvchi” ekani ta'kidlanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, Yajuj-Majujning chiqishi, Imom Mahdiyning kelishi, vabo tarqalishi, yolg'onchi payg'ambarlarning chiqishi, ilmning ko'tarilishi, zinoning avj olishi kabi kichik alomatlar kuzatilishi manbalarda keltiriladi.

⁸⁹ F. Abdulboriy. Yavmul qiyamatu fil islam, masihiya va yahudiyya. Dor al-ifoq al-arabiya . S 113

⁹⁰ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. “Toshkent islom universiteti”, 2001. 384 B.

2.2 Musulmon ilohiyotchilarining g'aybiyot masalasiga bergan ta'riflari

Har bir dinda bo'lgani kabi islom dinida musulmon ilohiyotchilari tomonidan ham g'ayb masalalariga doir o'z fikrlarini berib, ularni Qur'on va hadislardan dalillar bilan birga keltirishadi. Masalan buyuk musulmon ilohiyotchisi Imom G'azzoliy o'zining "Ihyo fi ulumi din" asarida g'ayb bilan bog'liq jarayonlar, voqealar, qiyomat . sur kabi tushunchalar haqida ma'lumot berib o'tiladi. Asarda g'ayb tushunchalariga oid qiyomat holati, tavsifi haqida ma'lumotlar ham o'rin olgan bo'lib, unda bo'lib o'tadigan voqealar va qiyomat alomatlari keltiriladi.

"O'sha Kun yer dahshatli silkinadi, bag'ridagi xazina va inson jasadlaridan iborat «yuk»larni yuzaga chiqarib tashlaydi. U Kunda odamlar qilgan amallarining jazo yokimukofotlari ko'rsatilishi uchun to'da-to'da bo'lib chiqib keladilar. U Kunda yer va tog'lar zo'riqib, bir daf'ada portlab ketadi. Ana shunda Qiyomat voqe bo'ladi, osmonlar yoriladi."⁹¹

Farishtalar osmonning chor atrofida Allohning amriga muntazir! Ularning ustida

Rabbingning Arshini u Kunda sakkizta farishta ko'tarib turadi.

Asarda alloma qiyomat daxshati va azobi haqida so'z yuritib, insonlarni tiriklik chog'ida ogoh bo'lishga, o'z amallarini sarhisob qilishga chorlaydi.

"O'sha Kunda sizlar hisob-kitob uchun Allohga yuzlantirilasisiz, biron siringiz maxfiy qolmaydi. U Kunda tog'lar bulutlar kabi yurgiziladi, yer tog'-toshlarsiz, bog'-rog'larsiz ochiq-yalang'och holda qoladi. U Kun yerlar qattiq larzaga keladi, tog'lar titilib, changto'zonga aylanadi. U Kunda odamlar to'zg'itib yuborilgan parvonalar kabi bo'lib qoladi.

Tog'lar esa titilgan jun kabi uchib yuradi. U Kuni onalar emizib turgan bolasini unutadi, homilador ayollar homilasini tashlab yuboradi. U Kuni odamlarni mastu gangigan holda ko'rasan, holbuki ular mast emaslar. Allohning azobi esa qattiq.

⁹¹ Imom G'azzoliy. Ihyo ulumi din.ziyouz.com. 7 B.

U Kuni yer boshqa yerga, osmonlar oʻzga osmonlarga aylanib qoladi. Barcha odamlar yolgʻiz va qudratli Allohga roʻbaroʻ boʻladilar. U Kun togʻlar kumlar kabi sochiladi, yer tep-tekis qilib qoʻyiladi, unda na chuqur va na doʻnglikni koʻrasiz. U Kun siz togʻlarni koʻrib, tek qotib turibdi, deb oʻylaysiz. Holbuki ular xuddi bulutlar yurgan kabi yuradi. U Kun osmon yorilib, teri kabi qizarib qoladi. Ana oʻsha Kunda ka bir ins va na bir jin qilib oʻtgan gunohidan soʻraladi.»⁹²

U Kunda osiy kimsalar soʻzdan mahrum qilinadi. Qiyomat kuni har bir jon nima amal qilganini biladi, avvalu oxir qilgan gunohlariga guvoh boʻladi. U Kun tillar soqov boʻlib, aʼzolar gapiradi. Abu Bakr Siddiq (r.a): «Ey Allohning rasuli, soqolingizga ok oralaganini koʻryapman?» dedi. «Hud va unga oʻxshagan suralar meni qaritdi» dedilar Allohning rasuli. Ular: Voqea, Val-mursalot, Nabaʼ, Takvir suralaridir».⁹³

Mezon yaʼni, amallar tortiladigan tarozi. gunoh va savoblar bitilgan nomalar oʻng va soʻlga sochilib uchadi, odamlar uch guruhga ajraladi.

Birinchi guruh birorta savob amali yoʻq odamlardan iborat. Doʻzaxdan qopqora boʻyin chiqib, qush donni tergan kabi ularni teradi va barchasini yigʻishtirib jahannamga uloqtiradi. Olov ularni komiga tortadi. Shunda: «Bu jahannamiylar abadiy badbaxtlikka tushdilar» degan nido eshitiladi.

Ikkinchi guruh begunoh odamlardir. Ularga; «Allohga doimiy hamd aytuvchilar oʻrnidan tursin» deyiladi. Ular oʻrnidan qalqib, jannat sari yuradilar. Soʻngra kechalarini ibodat bilan oʻtkazuvchilar va dunyo tijorati Alloh taoloning zikridan chalgʻitmagan kishilarga ham shu muomala qilinadi. Keyin ularga: «Bu jannatiylar boqiy saodatga ketdi» degan nido boʻladi».

Uchinchi guruh koʻpchilikni tashkil etib, ular yaxshi va yomon amallarni aralash qilgan kishilardir. Ularning yaxshi amali koʻpmi yo yomonimi, bu yolgʻiz Allohga ayon.

⁹² Imom Gʻazzoliy. Ihyou ulumi din.ziyouz.com. 7 B.

⁹³ Oʻsha asar. 8 B.

Lekin Alloh taolo O'zining afvidagi fazlini va jazosidagi adlini bandalariga ham bildirish uchun ularning amallarini taroziga soladi. Gunoh va savob amallar o'ralgan noma va sahifalar har tomonga sochilib uchadi...⁹⁴

Alloh taolo dedi:

«Biz taqvodor zotlarni otliq hollarida Rahmon dargohiga to'playdigan va jinoyatchi kofirlarni jahannamga tushishlari uchun haydaydigan kunni (eslang)!» (Maryam, 85-86-oyatlar).⁹⁵

Mana shu dahshatlardan so'ng odamlar Sirot tomon haydaladilar. Jahannam uzra

cho'zilgan Sirot qilichdan o'tkir, qildan ingichka ko'prikdir. Kimki bu olamda hayotini to'g'ri yo'lga qurgan bo'lsa, oxirat Sirotidan o'tish uning uchun yengil bo'ladi va najot topadi. Kimki bu dunyo xayotida to'g'rilikdan chalg'igan va gunoh yuklarini yelkaga ortib olgan bo'lsa, Sirotga avval qadam qo'yishi bilanoq, qoqiladi va qulaydi. Lovullagan olov seni qa'riga tortadi va nido keladi:

«(Alloh) aytdi: «(Jahannamda) xor bo'lingiz va Menga so'z qotmangiz!» (Mo'minlar, 108-oyat).⁹⁶

Abu Said Xudriy Payg'ambar alayhissalomning shunday deganlarini rivoyat qiladilar:

«Odamlar usti tikonu changaklarga to'la jahannam ko'prigidan o'tishar ekan, o'ng va chap tomonlaridan changaklarga ilinadilar. Ko'priking ikkala tarafida turgan farishtalar:«Allohim, salomat qil, Allohim, salomat qil» deyishadi tinimsiz. Kimdir ko'prikdan chaqmoq kabi o'tsa, kimdir shamol kabi o'tadi. Kimdir chopqir ot kabi, kimdir yugurib o'tadi. Kimdir yurib o'tsa, kimdir emaklaydi, yana kimdir sudraladi. Axli do'zax esa na o'ladi, na yashaydi. Kimlardir gunohlariga ko'ra jazolanadi, kuydiriladi, ko'mirga aylanadi, so'ngra shafolatga izn beriladi» (muttafaqun alayh).

Ibn Mas'ud roziyallohu anhu Payg'ambar alayhissalomning shunday deganlarini rivoyat qiladi: «Alloh taolo avvallaru oxirgilarni ma'lum Kunda shak-

⁹⁴ Imom G'azzoliy. Ihyou ulumi din.ziyouz.com. 13 B.

⁹⁵ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasini. "Toshkent islom universiteti", 2001. 311 B.

⁹⁶ O'sha asar. 349 B.

shubxasiz mahsharga to'playdi. Ular samoga ko'zlarini tikkan holda qirq yil hukmni kutib turishadi. Keyin mo'minlarga: «Boshlaringizni ko'taring» deyiladi. Boshlarini ko'tarishadi. Bas, ularga amallariga yarasha nur ato qilinadi. Kimgadir ulkan tog' barobar nur beriladi va bu nur uning oldida yuradi. Kimdir bundan kichikroq, kimdir xurmo daraxticha, kimdir undan ham ozroq nurga ega bo'ladi. Hatto oxirgi kishiga berilgan nur oyog'ining bosh barmog'i kadar yergagina yetadi, shu darajada xira yorug'lik taratadiki, goh yonadi, goh o'chadi. Nur taralib, oyoq osti ko'ringan paytda yuradi, o'chganida to'xtab qoladi».

So'ngra ularning nurlari miqdoriga ko'ra Sirotidan o'tishlari zikr qilinadi: «Kimdir ko'z ochib yumguncha, kimdir chaqmoq kabi, kimdir bulut kabi, kimdir uchar yul-duz kabi, kimdir uchqur ot kabi, kimdir chopqir kishi kabi o'tadi. Nuri oyog'ining bosh barmog'i qadar yerni yoritgan kishi yuzlari, qo'llari, oyoqlari bilan sudralib, emaklaydi. Bitta qo'lini oldinga tashlaydi, ikkinchisi orqaga tortadi, bitta oyog'ini yerdan uzsa, narigisi osilib qoladi. Hatto olov uning yonlarigacha keladi.⁹⁷

Bu xatarlardan qutulgach, ko'prik ustida turib, deydi: «Allohga hamd bo'lsin, hech kimga bermagan ne'matini menga ato etdi, jahannamni ko'rganimdan so'ng undan najot berdi».

Keyin uni jannat eshigi oldidagi ko'lga olib kelib, cho'miltirishadi» (Ibn Adiy va Hokim rivoyati).

Anas ibn Molik aytadi: «Payg'ambar (a.s)ning shunday deganlarini eshitdim: «Sirot qilich kabi o'tkir, qildek ingichkadir. Farishtalar mo'min va mo'minalarni qutqaradilar. Jabroil (a.s) mening belim (kamarim) dan tutadi, men: ey Rabbim, salomat qil, salomat qil, deyman. U Kunda toyib ketuvchi erkaklar va toyib ketuvchi ayollar ko'p bo'ladi» (Bayhaqiy rivoyati).

Asarda jahannam daxshatlari va uning daralari haqida aytib, o'tilib, quyidagi hadislar keltiriladi. Payg'ambar alayhissalom dedilar: «Jahannamda yetmish ming vodiy, har vodiyda yetmish ming dara, har darada yetmish ming ilon va chayon

⁹⁷ Imom G'azzoliy. Ihyou ulumi din.ziyouz.com. 25 B.

bor. Kofir va munofiqar bu vodiya daralarning barchasidan o'tmaguncha, jahannamning nihoyasiga yetmaydi» (Ibn Koniy rivoyati).'

Ali (k.v) rivoyat qiladi: «Rasuli akram shunday degan edilar:

— «Jubbul xuzn»ga tushib qolmasligingiz uchun Allohdan panoh tilangiz.

— «Jubbul huzn» nima? deya so'raldi.

— U jahannamdagi shunday vodiya, jahannamning o'zi har kuni yetmish marta

undan panoh tilaydi. Alloh taolo bu vodiya riyokor qorilar uchun hozirlab qo'ygandir, dedilar Rasululloh sollallohu alayhi vasallam» (Ibn Adiy rivoyati).⁹⁸

Jahannam eshiklari ustma-ust qurilgan. Ular kuyidagi tartibda joylashgan bo'lib, eng tepadagi eshikning nomi - Jahannam, Saqar, Lazzo, Xutoma, Sa'ir, Jahim va Xoviya deb ataladi. Hoviyaning chukurligi xuddi dunyo shahvatlari kabi tubsizdir. Shuningdek, dunyo hayotida bir uzv o'zidan kattaroq boshqa uzvga borib ulangani kabi jahannamdagi Hoviya ham o'zidan chuqurroq Hoviyaga borib ulanaveradi.

Abu Hurayra aytadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan birga edik. Daf'atan gumburlagan sasni eshitdik. Shunda Rasuli akram:

— Bu nima bilasizlarmi? - so'radilar.

— Alloh va rasuli bilguvchiroqdir, dedik.

— Bu yetmish yil oldin jahannamga tashlangan toshdir, hozir uning qa'riga yetdi, dedilar Rasuli akram» (Muslim rivoyati).

Zero, mana shu hayotda ham bandalar dunyoga muxabbat jihatidan farqlanadilar. Kimdir dunyoga mukkasidan ketib, unga butkul g'arq bo'ladi, kimdir ma'lum chegarada to'xtaydi,

Shuningdek, jahannam olovi komiga tortilish darajasi ham tafovutlidir. Alloh zarra

misqolicha zulm qilmaydi. Do'zaxga tushgan barcha kishilarning azobi bir xil emas. Balki har bir do'zaxiyning azoblanish darajasi isyo-nu gunohiga qarab ma'lum doirada chegaralangan. Agar azobi eng kam do'zaxiyga butun dunyo

⁹⁸ Imom G'azzoliy. Ihyou ulumi din.ziyouz.com. 28 B.

to‘laligicha berilsa, azob shiddatini kamaytirish uchun u o‘sha dunyoning hammasini fido qilgan bo‘lardi.

Payg‘ambar alayhissadam aytdilar: «Qiyomat kunida do‘zax ahli tortadigan azobning eng yengili - o‘tdan kavush kiyish, kavushning harorati miyani qaynatadi» (muttafaqun alayh).

Dunyo olovi jahannam oloviga o‘xshamaydi. Ammo bu dunyoda eng qattiq jismoniy azob o‘tning kuydirishidir.

Xabarlarda kelishicha, dunyo olovi yetmish marta rahmat suvi bilan yuvilganidan so‘ng dunyo ahli toqat qiladigan darajaga yetdi (Ibn Abdulbar rivoyati).

Payg‘ambar (a.s) jahannam olovini shunday sifatlaydilar: «Alloh taolo jahannamga ming yil yonishni buyurdi, xatto olov qizardi. Keyin yana ming yil yonishga buyurdi, olov oqardi. So‘ng yana ming yil yonishga buyurdi, olov qoraydi. Jahannam qop-qora, zimistondir» (Termiziy rivoyati).

Payg‘ambar alayhissalom xabar beradilar: «Do‘zax Rabbiga shikoyat qildi:

-Ey Rabbim, o‘zim o‘zimni yeyapman.

Parvardigori olam unga ikki marta nafas olishga izn berdi: yoz oyida bir marta va qish oyida bir marta. Yoz mavsumidagi eng issiq kun jahannamning xaroratidandir. Qish mavsumidagi eng sovuq kun jahannamning zamharir sovug‘idandir» (muttafaqun alayh),

Anas ibn Molik aytadi: «(Qiyomat kuni) dunyo hayotida to‘kin-sochin yashagan kofirlardan biri keltiriladi va farishtalarga:

— “Uni jahannam oloviga bir tiqib oling!”, deya buyuriladi. O‘tga kirib chiqqandan so‘ng undan:

— “Dunyo hayotida hech to‘kinlik ko‘rdingmi?” deb so‘raladi.

— “Yo‘q”, deydi.

Dunyo hayotida eng ko‘p ozor va zarar ko‘rgan odam keltiriladi va farishtalarga:

— “Uni jannatga bir kiritib oling”, deya amr qilinadi. So‘ngra unga:

— “Dunyo hayotida hech yomonlik ko‘rdingmi?” deb so‘raladi.

— “Yo‘q, also”, deydi u».

Abu Hurayra aytadi: «Agar yuz ming yoki undanda ko‘proq kishi jamlangan masjid ichida jahannam ahlidan bittasi bir marta nafas olsa, masjid ahlining barchasi o‘sha zahoti til tortmay o‘lgan bo‘lardi».

Abu Said Xudriy Payg‘ambar (a.s) ning shunday deganlarini rivoyat qiladi: «Agar jahannam yiringidan bir paqiri dunyoga to‘kilsa, butun yer ahli badbo‘y, sassiq hidga ko‘milgan bo‘lardi» (Termiziy rivoyati).

«Uning (ya‘ni, har bir kofir kimsaning) oldida jahannam bordir. (Jahannamda) unga yiringli suvdan berilganida, uni yutmoqchi bo‘ladi-yu (tomog‘idan) o‘tkazolmaydi, unga har tomondan o‘lim keladi-yu, u o‘lolmaydi...» (Ibrohim, 16-17-oyatlar)⁹⁹.

«...Agar ular (tashnalik shiddatiga chidolmay) suv so‘rasalar, ularga eritilgan (dog‘langan) yog‘ kabi yuzlarni kuydirguvchi suv berilur. Naqadar yomon ichimlik u, naqadar yomon joy u» (Kahf, 29-oyat)¹⁰⁰.

Keyin ularning «zaqqum» deb atalmish taomi xususida:

Alloh taolo dedi:

«So‘ngra albatta sizlar, ey (qayta tirilishni) yolg‘on deguvchi gumrohlar! Shak-shubhasiz, (jahannamning o‘rtasida o‘sadigan) Zaqqum daraxtidan yeguvchi, undan qorinlaringizni to‘ldirguvchidirsizlar. So‘ng uning ustiga qaynoq suvdan ichguvchi, (ichganda ham) tashna, to‘ymas tuyalar kabi ichguvchidirsizlar!» (Voqea, 51 55-oyatlar)¹⁰¹.

«Darhaqiqat, u do‘zax qa‘rida o‘sadigan bir daraxtdir. Uning butoqlari (dagi

mevalari xunuklikda) xuddi shaytonlarning boshlariga o‘xshar. Bas, ular (ya‘ni, do‘zaxilar) albatta undan yeb, qorinlarini to‘ldirguv-chidirlar. So‘ngra albatta ular uchun uning (Zaqqum mevalarining) ustiga qaynoq suvdan aralashtirilur (ya‘ni, ularga majburan qaynayotgan suv ichirilur). So‘ngra albatta ularning yana qaytadan do‘zaxga qaytishlari bordir» (Ya‘ni, qaynoq suv ularning butun ichki

⁹⁹ Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolar tarjimasi. “Toshkent islom universiteti”, 2001. 527 B.

¹⁰⁰ O‘sha manba. 297 B.

¹⁰¹ O‘sha manba. 448 B.

a'zolarini kuydirib bitganidan so'ng endi do'zax o'ti ularning badanlarini kuydirur)» (Vas soffot, 64-68-oyatlar)¹⁰².

«(Ular) qizigan do'zaxga kirur! Qaynab turgan bu loqdan yeug'orilur!» (G'oshiya, 4-5-oyatlar)¹⁰³.

«Zero; Bizning dargohiiiizda (kofirlar uchun tayyorlab qo'yilgan) kishanlar va (ularni kuydirib azob berguvchi) olov-do'zax bordir! Va (tomoqqa) tiqilguvchi (yiring va qon kabi) «taom» hamda alamli azob bordir!»

(Muzzammil, 12- 13-oyatlar).

Farajulloh Abdulboriy o'zining “Yavmul qiyoma baynal adyon masihiy, yahudiy,islom” asarida qiyomat va o'lim haqidagi tasavvurlar dinalarda qanday yoritilganligini e'tibor qaratadi. So'ngra yuqoridagi tushunchalar bilan bog'liq marosimlarni o'tkazish tartibi bilan bog'liq qoialar, ularnng tartibi keltiriladi.

Ibn Sino falsafasi uning risolalarida keltirilish tartibiga ko'ra 4 qismdan iborat: mantiq, tabiiyot, riyoziyot, ilohiyot (metafizika)

Mazkur bo'limlardan ilohiyot yoki metafizika qismi hozirgi kunda dinshunoslik, islom falsafasi sohasidagi tadqiq etadigan dolzarb mavzulardan biridir. Shuning uchun metafizika atamasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir.

“Metafizika (yun. Meta physika- fizikadan so'ng) –borliqning sezgilardan yuqori turuvchi prinsiplari va umumiy asoslari to'g'risidagi fan. Fizikada tadqiqotchi bevosita hissiy obyektlar ustida izlanish olib borsa, metafizikada esa tadqiqotchi sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan obyektlarni tadqiq etadi”.¹⁰⁴

Metafizika tadqiqot mavzuiga kiruvchi sifat, mazmun, mohiyat, hodisa va boshqa obyektlar to'g'risida fikr yuritilganda ularni bevosita ko'rib bo'lmaydi, ular boshqa narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorliklari jarayonida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan tarixan metafizika atamasi, ko'pincha, falsafa atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

¹⁰² Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi. “Toshkent islom universiteti”, 2001. 592 B.

¹⁰³ O'sha manba. 574 B.

¹⁰⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediasi. T., 2003. 5-jild. 609-bet.

Ibn Sino talqinidagi metafizika keng ma'nodagi borliq haqidagi ta'limot bo'lib, konkret fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi.

“Barcha fanlarning prinsplari manashu fanga asoslanadi. Garchi uni oxiri o'rgansalarda, haqiqatda u eng avvalgidir”.

Metafizika o'rganadigan borliqning to'rtta turi mavjud:

1. Moddiylikning unsurlaridan batamom xoli bo'lgan predmetlar, ya'ni, sof ilohiy mavjudotlar va ularning eng asosiysi Xudodir. Bunda teologiya (ilohiyot) Ibn Sino tomonidan metafizikaning mazmunini belgilab beradigan qism sifatida ko'riladi.

“Barcha narsalarning yaratuvchisini, uning yagonaligini anglash va barcha narsalarning unga bog'liqligi masalasi ham mazkur fan ichiga kiradi. Bu yagonalikni mahsus o'rganadigan fan qismi teologiya yoki bo'lasa ilohiy fan deyiladi”.¹⁰⁵

2. Borliqning ikkinchi ko'rinishi materiya bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan, ilohiy unsurlar bilan kamroq aloqada bo'lgan, masalan, samoviy jismlar va ularni tiriltiruvchi va harakatga keltiruvchi ruhlar.

3. Ba'zida moddiylikka ega bo'lgan, ba'zida undan xoli bo'lgan predmetlar. Masalan: substansiya, aksidensiya (tarkib), zaruriyat, imkoniyat va boshq. Aynan shular , aytish kerakki, metafizikani archa fanlarning asosiga aylantiradi.

4. Metafizika, shuningdek, moddiy, ya'ni obyektiv ravishda mavjud bo'lgan real predmetlarni, to'g'riroq aytganda, fizik tabiatga ega, materiya bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni ham o'rganadi. Masalan: u yoki bu narsalarning mohiyati, individual aniqlik kasb etgan narsalarning mavjudligini o'rganadi.

“Kitob-un-najot”da Ibn Sinoning abadiyat va yaratilish haqidagi mulohazalari berilgan. Bunda Ibn Sino sababsiz yaratilish g'oyasini rad etadi. Uning fikricha, odam Xudo tomonidan zaruriy ravishda yaratilgandir. Materiyaning muayyan ma'noda yaratilgan deyish lozim, materiyaning mavjudligi unga(oliy sababga) bog'liqdir. Lekin ikkinchi tomondan, materiya badiiy substansiyadir, zero materiya

¹⁰⁵ Ibn Sino. Danish-name. Per. A. M. Bogoutdinova. Stalinabad, 157. 142-bet.

zamonga nisbatan birlamchi. Avvaldir. Qadimiyydir. Boshqacha qilib aytganda, materiya mavjud bo'lmagan davrning o'zi bo'lmagan.¹⁰⁶

Materiyani abadiy deb e'lon qilish Ibn Sino metafizikasini ikki tarmoqli ekanligini ko'rsatadi va o'zida materialistik tendensiyaning namoyon etardi. Tabiiyki, mazkur fikrlar monoteistik ta'limot tomonidan asosiy raddiyaga aylandi. Shuningdek, olim tomonidan materiyaning abadiy deb e'lon qilinishi mutakallimlar tomonidan ishlatilgan atomic tizim va bo'shliq kabi ta'limotlarni ham rad etardi. Ayni shu kabi fikrlarni uning ilohiyotchilolar tomonidan tanqid qilinishiga sabab bo'lgan.

Hozirgi kunda Ibn Sinoning materiyaning abadiyligi masalasiga faylasuflar tomonidan turlicha izohlar bo'lmoqda. Taniqli o'zbek olimlaridan falsafa fanlari doktori Anvar Sharipovning ta'kidlashicha, Ibn Sinodagi materiyaning abadiyligi Yaratuvchining doimo yaratishda, harakatda ekanligiga ishora bo'lib, bu ta'limot Uning qudratini yanada quvvatlaydi.

Ibn Sino metafizikasining tarkibiy qismi bo'lmish dunyoning tuzilish masalasi uning Beruniy bilan savol javoblarida ham aks etgan.

“Beruniy Ibn Sinoga shunday deb savol beradi: Agar, Aristotelning fikricha, falak tashqarisida bo'shliqning yo'qligi aniq va top'g'ri bo'lsa va biz falakni olov kabi latif gavhar deb taxmin qilsak ham, u chegaralangan bir to'da narsadir. Ammo falakning aylanma harakati tabiiy harakat bo'lmasligi mumkin. Falakning bu aylanma harakati sayyoralarning sharq tomonga bo'lgan tabiiy harakatlariga va g'arb tomonga bo'ladigan kecha-kunduzlik araziylar harakatlariga o'xshaydi. Agar falakning aylanma harakati araziylar emas, chunki aylanma harakatlarning yo'malishlari kelishmaslik yo'q deyilsa, shul so'zga lozim keladigan narsalar orasida bo'yamachilik va safsata zohir bo'ladi. Chunki bir narsaning o'zida biri sharq tomonga, yana biri g'arb tomonga bo'lgan ikki tabiiy harakatni o'ylash mumkin emas. Bu esa ma'nida mos bo'lib, lafzda ayirmalik bo'ladi. Chunki g'arbg'a tomon harakatni sharqqa tomon harakatning ziddi deb aytilmaydi. Bu taslim va e'tirof qilingan bo'lib, lafzlarda talashilganda ma'nilarga qaraymiz”

¹⁰⁶ Jumaboyev Y. O'zbekiston falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T.; O'qituvchi, 1997. 92-93-betlar.

Ibn Sino o'z javobida bo'shliq, tabiiy o'rin va harakat masalalariga to'xtalib, shunday javob beradi:

“ Men ham falakning pastga tomon harakat qilishi mumkin emas, pastda falakning ko'chib borishi uchun tabiiy bir o'rin yo'q deyman. Agar bir ovozdan falakning shunday harakati borligini qiyomatga qadar faraz qilinsa ham, men yo'q deyman. Chunki falak pastga tomon harakat qiladi deyish, olamdagi hamma unsurlar o'z tabiiy o'rinlaridan ko'chib yuradilar deyishni isbot qiladi. Bunday ko'chib yurish tabiat olamida ham mumkin deyish yanglishdir. Bu esa falakning ko'chishi uchun bo'shliq bor ekanligini isbot qiladi. Holbuki, tabiat olamida boshliq yo'dir. Shunday ekan, pastga falak ko'chib borishi uchun tabiiy ori, yo'qdir va yana, yuqorida ham haqiqiy, ham hayoliy bo'lsin harakatga o'rin yo'qdir. Chunki bu harakat ham biz aytgandek ilojisiz yomonliklarga, ya'ni hamma unsurlarning o'z tabiiy o'rinlaridan ko'chishlariga yoki bo'shliqning borligiga olib boradi...

Har bir tabiiy jismning tabiiy o'rni border. Shul muqaddima (so'z boshi)ga “falak jismdir” deb kichik muqaddimani qo'shsak (mantiqiy istelohlar bilan), birinchi shaklning birinchi navida “falakning tabiiy o'rni bor” degan natija chiqadi. Bu natijani ba'zi qiyosga ko'chirib “falakning tabiiy o'rni yo yuqorida, yo pastda va yoki o'zining turgan yerida” deb, uning yuqori yoki quyida bo'lamsligini oradan chiqarsak, “falakning tabiiy o'rni turgan yeridir” degan natija chiqadi. O'zining tabiiy o'rnida bo'lgan har bir narsa haqiqatda yengil ham, og'ir ham emas...

Og'ir narsada ham shunday hukmdir. Chunki og'ir narsa tabiat bo'yicha quyiga harakat qiladi. Uning tabiiy o'rni pastlikdir. Tabiiy o'rnining ekaniga sabab shulki, tabiati bilan harakat qiluvchi har bir narsaning harakati tabiiy o'rniga tomon bo'ladi. Avvalgi kabi bayon qilamizki, tabiiy o'rinda bo'lgan narsa haqiqatda og'ir emasdir. Endi ikki muqaddimaning natijalarini qo'shsak, “tabiiy o'rnida bo'lgan narsa aslida og'ir ham emas, yengil ham emas” degan masala isbotlanadi”.

Savol-javoblardan ma'lum bo'ladiki, Ibn Sino harakatning sababi yo tashqarida (majburiy) yoki uning o'zida (tabiiy) deb biladi, majburiy harakat yaratuvchi

tufayli amalgam oshadi, tabiiy harakat esa jism tarkibida olov bo'lagi g'olib bo'lganda hosil bo'ladi. Mutafakkirning harakat manbai to'grisidagi fikrlari uning mantiqiy muhokamalarining natijasi hisoblanadi.

Ibn Sino jin so'ziga "turli shakllarga kira oladigan, shaffof tuzilishga ega, gapiradigan latif mavjudot" deya ta'rif bergan. Ammo faylasufga ko'ra bu ta'rif, jinning mavjudot sifatidagi mohiyatini ochib bermasdan, balki faqatgina jin nomini ma'no jihatdan nima ekanini izohlab beradi.¹⁰⁷

Islom dinida o'limdan keyingi jarayonlar, ruh borasida Abu Lays as-Samarqandiy ham o'zining "Tanbeh ul g'ofilyn" asarida ma'lumot berib o'tadi.

U asrning II bobini "O'lim qo'rqinchi va shiddati bobi"¹⁰⁸ deb nomlab, inson o'lim bilan yuzlashgandagi holat, o'lim haqida Rasululloh (s.a.v) dan hadislarni keltiradi.¹⁰⁹

¹⁰⁷ Ibn Sina. Tis'u resa'il. Istanbul. 1998. 62 B.

¹⁰⁸ Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbeh ul g'ofilyn. T.; Mutarjim. 2003-2005. 19-bet

¹⁰⁹ O'sha manba. II bob. O'lim qo'rqinchi va shiddati bobi hadislari

1. Anas ibn Molik. "Kimiki Alloh bilan uchrashmoqni yaxshi ko'rsa..." Sahih*. Buxoriy (6507) va Muslim (14/2673), Ahmad (107/3).

2. Hasan. "Mo'min odamga o'lim og'irligi va uning qiyinligi..." Zaif*. Uning illati irsolder.

3. Jobir ibn Abdulloh. "Bani Isroildan gapiringlar..." Isnodi zaif*. Ibn Abu Shayba, "Al-musnaf" (62/9), Ahmad, "Az-Zuhd" (23), Abdu ibn

Hamid, "Al-miyzon" va Hofiz Haysaliy, "Majma'ul zavoid" (1).

4. Abdulloh ibn Ma'sur Hoshimiy. "Bir kishi Payg'ambarimiz huzurlariga kelib..." Mavzu*. Uni Zubaydiy "Ixtof" kitobida zikr qilgan (1).

5. Abdulloh ibn Ma'sur Hoshimiy. "Payg'ambar (s.a.v.) ushbu oyatni o'qidilar..." Mavzu*. Bayhaqiy "Asmoi va sifat"ida rivoyat qilgan va

Zubaydiy "Ixtof"da (327/9) zikr qilgan.

6. Maymun ibn Mahron. "Besh narsadan oldin besh narsani g'animat bil..." Sahih*. "Sahihul-jome"ga (101/7) qarang. Bayhaqiy, "Ash-shu'ab"

(1250).

7. Hadis. "Qish mo'min g'animatidir..." Zaif* Ahmad (75/3). Abu Ya'lo (72/1). Abu Na'im (325/8) va "Zaiful jome" (3429).

8. Abu Said Xudriy. "Agar sizlar badanga yoqadigan zikrlarni..." Juda zaif*. Termiziy (2460/4) va Termiziyning zaiflariga qarang.

9. Hadis. "Agar hayvonlar..." Zaif*. Ibn Muborak, "Zavoiduz zuhd" (152) va Qazo'iy (1434) va "Zaif"ul jome"ga qarang (48/3).

10. Anas ibn Molik. "O'lim mo'minning rohatidir..." Mavzu*. Abu Na'im "Al-xulya"da (121/3) va Bayhaqiy "Ash-Shu'ab"da (9886-9885) va

Javziy "Al-mavzu'ot"larda keltirgan (121/3).

11. Ibn Mas'ud. "Payg'ambarimizdan: "Mo'minlarni qaysi afzal?" deb so'ralganda..." Hasan*. Abu Na'im, "Al-xulya" (313/1) va Hokim (540/4).

Bayhaqiy, "Shua'bul iymon" (7993).

12. Hadis. "Aql egasi ul kishiki..." Zaif*. Ahmad (124/), Termiziy (2459), Ibn Moja (4260).

Abu Lays as-Samarqandiy III bobni qabrdagi holatlar mavzusiga bag'ishlab, mo'min yoki kufr qilgan kishi holati, qabrdagi savol-javoblar, bandaning javobi haqida hadislar orqali dalil keltirib, ma'lumot beradi.

Masalan, quvvatlantirish haqida Barro ibn Ozib roziyallohu anhu Payg'ambardan (s.a.v.) rivoyat qilgan hadisni keltirib, javob beradi.¹¹⁰

Quvvatlantirish – sobitqadam qilish Alloh taolaga ishongan, ixlos qilgan, itoat qilgan mo'minlar uchun uch holatda bo'ladi.

Birinchisi, ajal farishtasini ko'rgan paytda;

ikkinchisi, Munkar-Nakir savol qilgan paytda;

uchinchisi, qiyomat kunidagi hisoblashish paytida bo'ladi.

Ajal farishtasini ko'rgan vaqtdagi quvvatlantirish uch turli bo'ladi.

1. Kufrdan saqlaydi va tavhid uzra to'xtashga muvaffaq qiladi hamda uning ruhi islomiy holatda chiqadi.
2. Maloikalar uni rahmat bilan hursand qiladi.
3. Jannatdagi o'rnini ko'radi.

Qabrda quvvatlantirish uch turlidir:

1. Alloh taolo yaxshi to'g'ri so'zlarni unga bildirib (o'rgatib) qo'yadi. Shu bilan ikki farishtaga Parvardigori rozi bo'ladigandek javob beradi.
2. Undan ayanchli, dahshatli qo'rquvni ketkazadi.
3. Jannatdagi o'rnini ko'radi, so'ngra qabr jannat bog'laridan bir boqqa aylanadi.

Hisob paytida quvvatlantirish uch turlidir:

1. Undan so'raladigan hujjatni Alloh taolo unga o'rgatib qo'yadi.
2. Uning ustida bo'ladigan hisobni yengil qilib qo'yadi.
3. Adashishlik va xatolarni o'tkazib, kechirib yuboradi.

Va aytiladiki, quvvatlantirish to'rt holatdadir:

1. O'lim vaqtida.
2. Qabrda javob berishlikda.
3. Hisob paytida.

¹¹⁰ Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbeh ul g'ofiliyn. T.; Mutarjim. 2003-2005. 23-bet

4. Sirot ko‘prigi oldida, ya’ni undan ko‘rinmay ovoz chiqaradigan chaqmoq kabi o‘tib ketadi.¹¹¹

Asarda ko‘plab beriladigan savollardan biri, ya’ni Munkar va Nakir savol-javob qilganda savol ruhga beriladimi yo jasadga deb ikkilanishga ham javob berib o‘tiladi.

Ba’zilar aytdilar:

“Savol Ruhga bo‘ladi, jasadga emas. U vaqtda ruh jasadning ichiga kiradi”, deyiladi. Yana aytiladi: “Ruh jasad va kafan orasida bo‘ladi”, deb. Bu so‘zlarning hammasi oyat va hadislardan, haqiqiy rivoyatlardan kelib chiqqan. Ahli ilmlar nazdidagi to‘g‘ri ish insonning qabr savollariga iqrar bo‘lishligidir. Savol-javobning kayfiyati bilan mashg‘ul bo‘lib qolmasligi kerak. Va: “Alloh biluvchiroqdir, uning qanday ekanligini albatta, o‘lganimizda ko‘rgaymiz”, deb aytmoq to‘g‘riroqdir.¹¹²

Bunday savol-javoblarning kelib chiqish sababi borasida ham alloma quyidagilarni ta’kidlaydi:

Qabrda bo‘ladigan Munkar-Nakir savol-javoblariga ishonmaslik ikki turli bo‘lishi mumkin.

1. Bu holat g‘ayritabiiy bo‘lganligi uchun, bu aqlga sig‘maydi, deyish bilan.
2. Bo‘lishi mumkin, deydiyu, lekin bu haqdagi dalillarni asossiz deb biladi, ya’ni dalillarga qanoatlanmaydi.

Agar kimki, bu holat g‘ayritabiiy, bo‘lishi mumkin emas, desa, bunday so‘z payg‘ambarlikni inkor qilish va mo‘jizani yo‘qqa chiqarishdir, chunki payg‘ambarlar odamlardandir. Ularning tabiati odamlarning tabiati kabidir. Albatta, payg‘ambarlar farishtani ko‘rdilar, u ularga vahiy tushirdi. Muso alayhissalom uchun dengiz yorildi, u zotning hassasi ajdahoga aylandi. Buning hammasi tabiatga xilofdir. Ammo bu narsalarni dalillar kuchli emas deb inkor qilishlik Islomdan chiqishlikdir.¹¹³

¹¹¹ Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbeh ul g‘ofiliyn. T.; Mutarjim. 2003-2005. 23-24--bet

¹¹² O’sha asar. 24-bet.

¹¹³ O’sha asr. 25-bet

Allomaning bu holat yuzasidan berilgan savolga javobidan ko'rish mumkinki, islom ta'limotida g'ayb masalalari ya'ni insonning o'limidan so'nd qayta tirilishi, o'z amallari yuzasidan so'roqqa tutilishi va natijada mukofot yoki jazoga ega bo'lishi haqiqatdir.

Abu Lays as-Samarqandiy o'z asarida o'lim va qabrdagi holatlarni keltirib o'tish bilan birga qiyomat qoim va uning tavsifini Qur'on karim va hadislarga tayanib, berib o'tadi.

Bundan tashqari alloma qiyomat, jannat ahllari va do'zax ahllari tavsifini keltirib o'tadi. Masalan, qiyomat borasida aytilganda Oysha(r.a), Abu Hurayra (r.a) va Ibn Ma'sud (r.a) kabilardan rivoyat qilingan hadislarni keltiradilar.¹¹⁴

Xulosa qilib aytsak, musulmon ilohiyotchilari o'zlarining asarlarida g'ayb bilan bog'liq masalalarni yoritishda eng avvalo Qur'oni karim va hadisga, so'ngra o'zlaridan avval o'tgan ulamolar fikrlariga tayanishga harakat qilganlar.

¹¹⁴ Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbeh ul g'ofiliyn. T.; Mutarjim. 2003-2005. IV bob. Qiyomatning qo'rqinch va dahshatlari bobi hadislari

1. Oyisha. Yo Rasululloh! Qiyomat kuni kishi yaxshi ko'rgan odamini eslaydimi?...» Zaiif*. Ahmad (110/6) va «Zaiful jome'» (1245) ga qarang.
2. Abu Hurayra. Rasulullohdan (s.a.v.) rivoyat qiladilar: «Ikki nafha (sur)...» Muttafaqun alayhi*. Buxoriy (4935) va Muslim (2955).
3. Abu Hurayra. «Alloh taolo yeru osmonni yaratib bo'lganidan keyin...» Zaiif*. Ibn Jarir (31/30, 30/24, 110/17) va Bayhaqiy, «Al-ba's van nushur» (236).
4. Abu Hurayra. «Payg'ambar (s.a.v.) aytdilar: «Ey insonlar va jinlar jamoasi...»* Oldingi 3-hadisdan bir juz'.
5. Nofe' ibn Umar. «Qiyomat kuni insonlar onalaridan tug'ilgandek yalang'och va yalangoyoq tiriladilar...» Ibn Kasir «Al-bidoya van-nihoya»da (267/1).
6. Maoz ibn Jabal. «Qiyomat kunida banda narsa haqida so'ralmaguncha...» Sahih*. Bazzor (157/4), Xatib (441/11) va «As-sahihatu» (946) ga qarang.
7. Ibn Mas'ud. «Kofir kishi u kunning uzunligidan...» Zaiif*. Abu Ya'lo va Hibbon (2582) «Al-matolibi-oliya» (270/4) va «Val-majma'a» (336/10) ga qarang.
8. Ibn Abbos. «Payg'ambar (s.a.v.) aytdilar: «Har bir payg'ambarga qabul bo'ladigan bir duo berilgan...» Hasan* Ahmad. (176/4) «As-Sunna» (797/818).

XULOSA

Mustaqillik tufayli yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarning samarasi o'laroq bugungi kunda har bir sohada yosh kadrlarni tayyorlash, ularni bugungi kunda mustahkam iroda, keng dunyoqarashli, ham jismonanan, ham ma'nan sog'lom farzandlar qilib tabiyalasholdimizga qo'yilga ustivor masalalardan sanaladi.

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalar natijasi o'laroq, ushbu bitiruv malakaviy ishi turli konfessiyalar istiqomat qiluvchi, diniy bag'rikenglik ustivor ahamiyat kasb etgan diyorimizda insonlarning dinlardagi g'ayb bilan bogliq masalalarga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

- O'xshashliklar bilan bir qatorda ba'zi farqli jihatlar ham bo'lib, unga ko'ra qabrda azoblanish yoki mukofot olish, faqat ruhning o'zigagina beriladi. Islomda esa, qabr azobi yoki mukofot ham ruhga, ham jasadga bir xil holatda bo'ladi. Shuningdek, islomda ikki farishta kelib, savol-javob qilishi haqidagi ta'limot mavjud. Yahudiylkda esa bu kabi holat kuzatilmaydi.

- Xristianlik va yahudiylk dinlarining ikkisida ham insonlarning qayta tirilishi, savol-javob qilinishi, hayotlik chog'laridagi amallariga qarab jannat yoki do'zaxga tushishi masalasi mavjud. Faqatgina bu tushunchalarning sodir bo'lish holati va ularning belgilari turlicha tavsiflangan. Shunga qaramasdan, undagi mazmun-mohiyat bir xil ya'ni: o'lim inson mavjudligining tugallanishi emas, balki uning jismida hayot alomatlari tugagach ham inson ruhining mavjud bo'lishidir.

- Ilk gunohni sodir etilishi insoniyatga o'limni ro'baro bo'lishiga sabab bolgan, degan qarash yahudiylk va xristianlik aqidalarida mavjud. Lekin, bu holat islom ta'limotida mavjud emas. Islom aqidasiiga ko'ra har bir inson fitratda dunyoga keladi.

- Xristianlik aqidasiidagi "osmon podsholigi " tushunchasi messiia ta'limoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, yer yuzida qiyomat sodir bo'lgach, Iso Masih qaytishi bilan tavsiflanadi. "Osmon podsholigi" va "Xudo podsholigi"

tushunchalari aslida bir bo'lib, ular Xudo tomonidan solih kishilar uchun yaratiladigan maskanni ifoda etadi.

- Xristianlik metafizikasi bevosita yunon falsafasi bilan qorishib ketgan va yunon falsafasidagi ayrim tushunchalar xristian aqidasiga kirib kelgan.

- Islom aqidasida kavniyot 3 qismga, ya'ni insonlar, jinlar, farishtalar olamiga bo'lib o'rganiladi.

- Insonlar tarix davomida Allohdan boshqa ko'rinmas g'ayrioddiy xilma-xil mahluqotlarga ham ishonganlar. Turli davr va hududlarda bu mahluqotlarning yaxshi va yomonlariga xilma-xil nomlar berilgan. Ular ba'zan ilohiylashtirilgan yoki ikkinchi darajali ilohiy mahluqotlar sifatida ko'rilgan, ba'zida esa insoniy xususiyatga ega ekaniga ham ishonganlar. Ular ba'zan ilohiylashtirilgan yoki ikkinchi darajali ilohiy mahluqotlar sifatida ko'rilgan, ba'zida esa insoniy xususiyatga ega ekaniga ham ishonganlar. Hattoki, yahudiylikda va xristianlikda ham ular o'zaro qorishtirib yuborilgan. Islom dinida esa farishta, payg'ambarlar, shayton, jinning xususiyatlari aniq qilib aytilgan.

- Musulmon ilohiyotchilari o'zlarining asarlarida g'ayb bilan bog'liq masalalarni yoritishda eng avvalo Qur'oni karim va hadisga, so'ngra o'zlaridan avval o'tgan ulamolar fikrlariga tayanishga harakat qilganlar.

- Musulmon ulamolari g'aybiyot masalasiga bergan ta'riflarida insonni bu dunyo o'tkinchi ekanligini qayd etganlar va hayotda ezgu amallar qilib, solih insonlarni bo'lishga chorlaganlar. Insonlarning qiyomatdagi holatini Qur'oni karim va hadislarga tayanib, tavsiflashga uringanlar.

- Musulmon ilohiyotchilari g'aybiyot masalalarida farishtalar, jinlar mavjudligi, inson o'limidan so'ng qayta tirilishiga, qiyomat sodir bo'lishiga, insonlar o'z amallariga qarab jannat yoki do'zaxga tushishlariga iymon keltirish zarurligini ta'kidlaganlar va ko'proq shar'iy masalalarga e'tibor berishga chaqirganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

Normativ hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi 1991 yil 14 iyun qonuni (yangi tahrirda) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1998. – № 5–6.

Rasmiy adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajak ishonchidir. T., "O'zbekiston". 2000.
2. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T., 1999.
3. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T., 2000.
4. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T., 2001.
5. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T. 10. – T., 2002.
6. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – T., 2003.
7. Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T. 12. – T., 2004.
8. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
10. Karimov I. A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: O'zbekiston, 1999.

O'zbek tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. T.: TIU, 2001.
2. Vahiy.Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996.
3. Zabur. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996.
4. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996.
5. Ibtido. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996.
6. Luqo. Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996.
7. Rimliklarga maktub.Injil. Turkiya. "Muqaddas kitobni tarjima qilish jamiyati", 1996.
8. Abu Homid G'azzoliy. O'limdan so'ng. Toshkent. Movarounnahr. 2005.
9. Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbeh ul g'ofiliyn. T.; Mutarjim. 2003-2005.
10. Jumaboyev Y. O'zbekiston falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T.; O'qituvchi, 1997.
11. O'zbekiston milliy ensiklopediasi. T., 2003.
12. A. Zayriyev, S.Saidova. Asriy tahdiddan ma'naviy himoya. Movarounnahr nashriyoti, 2013.
13. Jo'rayev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. – T., 1998.

Rus tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. Katolitizm. Slovar ateista. L.N.Velikovicha umumiy tahriri asosida. Moskva. Politizdat. 1991.
2. Garol'd dj.Berri. Vo chto oni veryat. Moskva. Dухovное возрождение. 1994g
3. А.Болотников, Тора и царство небесное: Исследование , 2011.
4. В.Вихнович. Иудаизм.- Спб. "Питер", 2006
5. Фомин. А. В. О жизни вечной на том свете в райских обителях. Москва. Новая мыслью 2009.

6. В. М. Зоберн. Будущая загробная жизнь: Православное учение. Эксмо; Москва; 2012
7. С. М. Пилкингтон. Религии мира. Иудаизму 2001.
8. Z. Islomxon. Talmud: Tarixuhu va ta'limuhu. Bayrut.
9. В. И. Гаражда. Социология религии. Москва. Наука. 1995.
10. П.И. Пучков, О.Е.Казьмина. Религии современного мира. Москва 1997.
11. Radugin A. A. Vvedeniye v religiovedeniye: teoriya, istoriya i sovremennyye religii: Kurs leksiy. – M., 2000.
12. Andronova L. P. Katolitsizm: Slovar. – M., 1991.

Ingliz tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. Joseph Hopkins. The Armstrong Empire. Grand Rapids. B.Erdmans Publishing Company. 1973.
2. Bultmann R. History and Eschatology. The presence of Eternity. N.Y., 1957.
3. Hiers, Jesus and the Future, Atlanta: John Knox Press, 1981, p. ix.
4. Lev Gillet. "The Politics of God.
5. Encyclopedia Judaica, 16 vols and Year Books. Jerusalem. 1972
6. Herzl T. Der Judenstaat. Leipzeg and Vienna, 1896; repr. Osnabrueck. 1968.

Arab tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. Sa'diyo al Fayyumiyy. al-Amanat val-e'tiqadat. 1882.
2. F. Abdulboriy. Yavmul qiyamatu fil islam, masihiya va yahudiyya. Dor al-ifoq al-arabiya.
3. Muhammad Said. Al-yavmul axira fi adyonil samaviya. Qatar. 1992.

Chet tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. W.M.Watt.Modern dunyada islam vahyi.(tre. Mehmet S. Aydin). Ankara. 1982.
2. Ibn Sina. Tis'u resa'il. Istanbul. 1998.

Internet saytlari ro'yxati

www.ziyonet.uz

www.tiu.uz

www.librarytuit.uz

www.fikr.uz

www.islom.uz

www.nauka.uz

ILOVALAR

Dinlardagi qiyomat va o'lim holati obrazlari



Farishta va jinlar obrazlari

